

Umumta’lim maktablarining 6-sinfda takrorlash darslarini tashkil etish metodikasi

BMIning umumiy tasnifi.....9

I BOB. TAKRORLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH

MUAMMOSINING ILMIY – METODIK O’RGANILISHI.....

1.1. O‘tilganlarni takrorlash, mustahkamlash termin – tushunchalarining ilmiy-metodik talqini.....22

1.2. 6- sinf ona tili dastur va darsliklarining takrorlash darslari bo‘yicha tahlili...29

II BOB. 6-SINF ONA TILI FANIDAN TAKRORLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....

2.1. 6-sinfda takrorlash darslarini tashkil etish uchun qo‘llaniladigan metodlar va innavatsion texnologiyalari.....39

2.2. Takrorlash darslarida qo‘llaniladigan mashq va topshiriqlarning turlari...50

III BOB. TADQIQOTNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. 6- sinfda o‘tiladigan takrorlash darslari yuzasidan tajriba sinov materiallari tasnifi.....55

3.2. O‘tkaziladigan takrorlash darslari natijalari62

Xulosa.....65

Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha - inglizcha tarjimasi.....68

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....71

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Har tomonlama barkamol avlod ta'lim- tarbiyasi barcha davrlarda ham muhim bo'lgan masala hisoblangan. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning ijodiy qobiliyatini o'stirish, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda xalqimiz oldida turgan yuksak maqsadlarga erishish uchun mamlakatimizda yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladigan ijtimoiy tizim ishlab chiqilgan. Bu tizimning qonuniy asosini "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, sog'lom avlodni voyaga yetkazish masalalariga doir Prezidentimizning ko'plab farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va davlat dasturlari tashkil etildi. Bular orasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqloq yo'nalishlarini belgilab beradi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda "Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakillanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratdi"¹, deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda: "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv- uslubiy majmualarini yaratish va o'quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash"², umum o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. Bizning oldimizda turgan hozirgi va vazifa bu tizimni taraqqiy ettirish va barkamol avlod tarbiyasini yuqori darajada tashkil etishdir. Bugungi kunda ta'lim sohasida keng qo'llanilayotgan barcha yangiliklar ana shu vazifani hal qilishga qaratilgan. Ta'lim- tarbiya ishlarini tashkil etishdagi zamonaviy yondashuvlar ham bevosita yoshlarimizning to'laqonli

¹Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: Sharq, 1997.-B.: 34.

²Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent: Sharq, 1997.-B.: 36.

samarali bilim olishlariga kattayordam bermoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir” mavzusidagi 2009 –yilning asosiy yakunlari va 2010- yilda O‘zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida: “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma‘naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlariga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz”,³ degan edi. Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e‘tibor ta‘lim tizmi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish esa chuqur bilim hamda katta mahoratni talab qiladi.

Ma‘lumki, akademik litsey o‘quvchilari hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida maktabda o‘rganilgan grammatik bilimlardan qanchalik keng foydalansalar, ularning grammatik tushunchalarning uslubiy jihatlarini o‘zlashtirishlari oson kechadi, ular tuzadigan sintaktik qurilmalar ham shunchalik boy va rang –barang bo‘ladi. Lekin maktabda ona tilidan egallangan bilimlar, hosil qilingan ko‘nikma va malakalarning bo‘shroq qismi asta-sekinlik bilan unutila boradi. Buning boisi shundaki, akademik litseylarning hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida grammatik termin – tushunchalarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga ustuvor ahamiyat beriladi. Kuzatishlarimizning ko‘rsatishicha, ana shu jalb etilmagan sof nazariy tushunchalarni ifoda etuvchi terminlar va ular bilan bog‘liq bir qator qoidalar o‘quvchilar xotirasidan ko‘tarilmoqda, bu esa o‘z navbatida, ulardagi bilim, ko‘nikma va malakalarning “Ona tili” DTS talablari darajasidan pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

3 I.A. Karimov Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir. – T.:”O‘zbekiston”, 2010.- - B.: 74-75.

Chunonchi, ona tilining barcha bo‘limlariga oid tushunchalar tilning uslubiy xususiyatlarini o‘rganish jarayonida qisman bo‘lsada tilga olinmoqda, takrorlash darslari mazmuni esa ko‘proq test bilan ishlash va turli yozma ishlarni tashkil etishga doir ishlar bilan xarakterlanib qolmoqda. Takrorlashni tashkil etish uchun ushbu usullar yetarli emas. Shunga ko‘ra ham ona tilidan tashkil qilinadigan takrorlash ishlarini olib borishda o‘quv yili oxirida tashkil qilinadigan takrorlash darslari bilangina kifoyalanmaslik, balki o‘rganilayotgan mavzu doirasida va takrorlash darslarini tashkil etishni kompleks tarzda amalga oshirish zarur. Bu esa, o‘z navbatida takrorlash bilan bog‘liq ishlarning turli – tuman bo‘lishiga erishish, nutq madaniyatiga oid tadbirlarni amalga oshirish shu asnoda takrorlashga oid dars shakllari, metod va usullarini ishlab chiqish, darslarda ulardan foydalanish uchun yetarlicha vaqt ajratishni talab qiladi, bular takrorlashni amalga oshirishda samaradorlikni taminlovchi, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, nutq madaniyatini oshirish uchun xizmat qiluvchi omilni vujudga keltirishi tabiiy. Tanlangan mavzuning dolzarbligi ana shular bilan asoslanadi.

Muammoning o‘rganilish darajasi. Ona tilini o‘qitish sohasiga salmoqli hissa qo‘shgan M. Asqarova, A. G‘ulomov, Y. Abdullayev, M. Omilxonova, K.Qosimova, H. Zaxirov, A. Po‘latov, A. Mirzayev, O.Roziqov, A. Sayfullayev, O.Yoqubjonova, N. Shukurullayev, R. Qayumova, R. Abdulahadova, R.Inogomova, B. Mirzaahmerov, M. Abdurayimova, T. G‘aniyev, M. Sobirova, Sh.Yusopova, N. Sattorova, T. Yusupova, T. Ziyodova, A. Bobomurodova, M.Sayidov, O. Oxunjonova kabi metodist olimlarning yaratgan tadqiqot ishlari, metodik qollanmalari, ilmiy maqolalarida uzluksiz ta‘lim tizimi bosqichlarida ona tilini o‘qitish yuzasidan yo‘l – yo‘riqlar bayon qilingan. Mazkur ishlardagi tavsiyalardan bugungi kunda ham maktab, akademik litsey, va kasb- hunar kolejlari ona tili darslarini tashkil etishda zaruriy dasturulamal sifatida unumli qo‘llanilmoqda. Ularda ona tili bo‘limlariga doir ayrim mavzularni o‘rganish jarayonida oldingi o‘zlashtirilgan bilimlarni vaqti- vaqti bilan takrorlashning axamiyati, zarligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Lekin ushbu mavjud metodik adabiyotlarda 5 – sinfda “Sintaksis

va punktuatsiya” va “Fonetika va grafika” bo‘limlarini o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinflarda, 6, 7 – sinflarda morfologiyaga oid mavzularni o‘rganishda boshlang‘ich va 5- sinfda, 8- sinfda sodda gap sintaksisiga doir mavzularni o‘Tasha 5 - 7 – sinfda morfologiya bo‘yicha olingan bilim egallangan ko‘nikma va malakalarini tiklash, mustahkamlash, takrorlash masalalari maxsus tadqiq qilinmagan. Lekin shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, metodist-olima T. Yusupovaning “Sintaksisni morfologiyani takrorlash bilan bog‘lab o‘rganish metodikasi” nomli monografiyasida ayni shu masala sintaksis va morfologiya bo‘limlai misolida chuqur o‘rgatilgan. M. Omilxonovanning “Maktabda ona tili sintaksisini o‘rganish”, “Maktabda sodda gap sintaksisini o‘rgatish” nomli metodik qo‘llanmalarida nazariy qonun-qoidalarni o‘quvchilar ongiga singdirish, bilimlarni mustahkamlash, shu jarayonda gapning intanatsion xususiyatlari ustida ishlash yoshlarning tafakkurini o‘stirish masalalari atroflicha bayon etilgan. Lekin ularda 8- sinfda quyi sinflarda morfologiyadan o‘tilganlarni (yil boshidagi alohida soatlarni hisobga olmaganda) rejali suratda takrorlab boorish usullarini yoritish g‘oyasi ilgari surilmagan.

8-sinf “Ona tili datsligida sintaksisga doir mavzular bayonida morfologik tushunchalarga zaruriyatga qarab murojaat etilgan. Chunonchi, dastladki 24 o‘quv soatidan o‘tiladigan “So‘z birikmasi “ mavzusida so‘z so‘z birikmasi, ibora, tasviriy ifoda kabi tushunchalar tilga olinadi. “Kesim va uning ifodalanishi” mavzisi o‘tilayotganda ot, fe‘l, ibora, sifatdosh, harakat nomi tushunchalari jalb qilinadi. Aytish mumkunki 8 – sinf “Ona tili” darsligida sodda gap sintaksisiga doir mavzular bayon etilganda, mashqlarda morfologiyadan o‘tilgan terminlarning ma’lum doirasi tilga olinadi, ma’lum bir qismi esa quyi sinflarda o‘tilganicha qolib ketaveradi. Ba’zi tushunchalarga ikki uch va undan ko‘p marotaba, ba’zilariga esa bir martagina murojat etiladi. Sintaksisni o‘rganish jarayonida morfologiyaga oid termin va qoidalarni takrorlab boorish masalasi dolzarb metodik muammodir. Ushbu muammo darslikdagiga qo‘shimcha ravishda foydalaniladigan mashq turlari, har xil tahlillar, matnning lingvistik tahlili, axborot texnologiyalari, loyihaviy dasturlar yordamida hal qilinishi mumkun. Bu ishlar esa ona tili o‘qtuvchilaridan

katta kuch-g'ayrat ijodkorlik va tadbirkorlikni talab etadi. Afsuski, ona tili darslarida bu borada jiddiy kamchiliklar ko'p bunday vaziyatning yuzaga kelishiga ayni shu yo'nalishda metodik tavsiyalarning yo'qligi ham sabab bo'lmoqda.

O. Roziqov "O'zbek tilidan darsliklari" kitobida takrorlashning maqsadiga ko'ra olti xil bo'lishini uqtiradi. Ularni umumlashtirib, quydagi tarzda qisqa tasnif etish mumkun: 1) o'quv yili boshida takrorlash, 2) o'quv yili oxiridagi yakuniy takrorlash, 3) oldin o'rganilgan bilimlarni o'quvchilar esiga tushurish uchun takrorlash, 4) darsda o'rganilgan yangi o'quv materialini takrorlash, 5) katta mavzu bo'lim yakunidagi takrorlash, 6) ma'lum o'quv materialini kelgusi o'quv soatida takrorlash.

Muallif nazarda tutgan takrorlashning ikkinchi – oltinchi xillari ushbu sinfda o'rganiladigan yangi materiallar bilan bog'liqdir. Quyi sinfda o'tilganlar takrorlashning birinchi turidagina ko'zda tutiladi. Bunday takrorlash sira ham kifoyalani bo'lmaydi hamda bilm, ko'nikma va malakalarini (ayniqsa, sintaksisni o'tayotganda morfologiyani) yil davomida esga olib borishni ta'minlamaydi, umuman o'tilganlarni muntazam qaytarib turish ishini e'tibordan chetda qoldiradi.

B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadovalarning "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida takrorlash e'tirof etiladi. "O'qituvchi o'quvchilarga so'z turkumlari haqida o'rganilgan bilimlarni takrorlash va oshirish uchun lug'at diktanti yozdirishi, berilgan matn ustida ishlash, so'z turkumlarini ajratish, guruhlash, ular bilan so'z birikmalari hosil qilish, gap tuzish MYaBT-4 moduli asosida matn yaratish kabi o'quv topshiriqlarini berishlari mumkun". Demak, takrorlashdarslarining tashkil etilishi masalalari hozirgi kunda ham o'zbek tili o'qitish nazaryasi va metodikasi sohasida muntazammuhum bo'lgan masalalardan hisoblanadi.

BMIning ilmiy- tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" kafedrasining "2017- 2018- yillarga mo'ljallangan BMI istiqbolli rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi ona tili takrorlash darslarini tashkil etishning, vositalari va metodlari shu jarayonda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga va ularda nutq madaniyatini shakllantirish mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotning bosh vazifasi sifatida ta'lim bosqichlari ona tili ta'limi jarayonida takrorlash darslarning tashkil etish metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish masalasi belgilanadi. Shunga ko'ra tadqiqot ishini yoritish davomida:

- Ta'lim bosqichlarida takrorlash darslarining tashkil etilishiga doir turli qarashlarni o'rganish, takrorlash bilan bog'liq ilmiy- nazariy va metodik adabiyotlarni tadqiq qilish, mavzuning yoritilganlik darajasini va mavjud muammolarni aniqlash;
- Amaldagi "Ona tili" o'quv dasturi va darsliklarning ona tili mavzularini o'tish jarayonida mavjud bo'lgan imkoniyatlarini o'rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish;
- Ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning ona tili yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini takrorlash yo'li bilan tiklash va rivojlantirishga olib qilyotgan ishlarning hozirgi holatini yoratish va tegishli xulosalar chiqarish.
- Ona tilini o'qitish jarayonida takrorlashga doir yondashuv va tamoyillarni belgilash;
- Ta'lim bosqichlarida oldingi bosqichda egallangan, ammo unutila olinmagan bilim, ko'nikma va malakalarni o'sha grammatik tushuncha va bilimlarni takrorlash yo'li bilan tiklashning usul, metod va vositalarini ishlab chiqish;
- Ta'lim bosqichlari ona tili darslarida takrorlash bilan bog'liq samarali mashqlar tizimini yaratish, o'quvchilarning matn yaratish ustidagi ishlar va muomala odobini egallashlari bilan bog'lab tashkil etish mazmuni, samarali usullari, o'quv topshiriqlari va mashqlar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti. Ta'lim bosqichlari ona tilidan tashkil qilinadigan takrorlash bilan bog'lab o'rganishga va o'quvchilarning nutq madaniyatini

o‘stirishga va o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan dars jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Ta’lim bosqichlarida ona tili darslarida til mavzularini takrorlash bilan bog‘lab o‘rganishning shakllari, vositalari, mazmuni va kodlarini, sintaktik qurilmalar boyligi hamda nutq madaniyatini ehtiyojlarini ko‘zda tutuvchi nazariy- metodik asoslar talqinidan iborat.

Tadqiqotning metodik asoslari va metodlari. Ishda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyevning nutqlari va asarlari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy – madaniy taraqqiyotini belgilovchi davlat hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, o‘zbek maktablarida ona tili ta’limi Konsepsiyasi, “Ona tili” DTS, taniqli psixolog, pedagog va metodist olimlarning ona tili ta’limining mazmunini yangilash, o‘qitishning samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi ilmiy- metodik asarlari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ishda qiyosiy –tarixiy, tavsifiy, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib boriladi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda umumiy pedagogika hamda xususiy metodika asosida mavjud qarashlar asosida ta’lim bosqichlari ona tilidan takrorlash darslarini tashkil etish metodikasi tadqiq qilinadi. Bunda:

- Ta’lim bosqichlarida takrorlash darslarini tashkil etish masalasiga oid tadqiqot ishlari va metodik qo‘llanmalarga munosabat bildirildi.
- Ta’lim bosqichlarida takrorlash darslarining tashkil qilinishi holatlari aniqlanildi.
- Mavjud dastur va darsliklar shu nuqtai nazar bilan tahlil qilindi.
- Takrorlash darslari va takrorlash bilan bog‘liq ishlarga qo‘yiladigan asosiy talablar belgilandi.
- Takrorlash darslarini va takrorlash bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish metodikasi yaratildi.

- Ta'lim bosqichlarida takrorlash bilan bog'liq tajribalar o'tkazildi va tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ta'lim bosqichlari ona tili ta'limi jarayonida takrorlash darslarini va takrorlash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda nisbatan qulayroq shakil va ko'rinishlarini tavsiya etishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari takrorlash darslarining hamda takrorlash bilan bog'liq ishlarning tashkil etishga oydinlik kiritadi, ta'lim bosqichlarida qo'llashda manba bo'la oladi. Ta'lim bosqichlarining ona tili ta'limida takrorlash bilan bog'liq ishlarini amalga oshirishda amaliy material bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakultetining "O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari bo'yicha Nizomiy nomidagi pedagogika universiteti qoshidagi 2- akademik litseyi ochiq darslar o'tkazildi (ochiq darslar ishlanmasi ilova qilinadi).

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy masalalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, BMI qo'llangan terminlarning o'zbekcha – inglizcha lug'ati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 70 sahifani tashkil qiladi.

I BOB.TAKRORLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOSINING ILMIY-METODIK O‘RGANILISHI

1.1. O‘tilganlarni mustahkamlash, takrorlash termin tushunchalarining ilmiy metodik talqini

Ta’lim bosqichlarining ona tili darslarida tilning bo‘limlarini oldingi o‘rganilgan termin- tushunchalarga tayangan va ularni yangi mavzuni o‘rganish jarayonida ham o‘quvchilarning xotirasiga tushirgan holda o‘rganish, shuningdek, oldingi o‘rganilganlarni uzluksiz takrorlab borish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini bosqichma – bosqich shakillantirib borish zaruriyati ta’lim sifati monitoringi yuritilayotgan bugungi kunda ta’lim samaradorligini qaysi yo‘llar bilan oshirish kerak degan savolga javob berishi mumkin bo‘lgan metodik muammo sanaladi. Bilimlarni takrorlash, ko‘nikma, va malakalarini tiklash masalalari bir qator metodist olimlarning yaratgan metodik qo‘llanmalarda o‘quv yili boshida takrorlash, bo‘lim oxirida takrorlash tariqasida yaratildi. Chunonchi, M. Omilxonova, N. Mahmudov, A. Nurmonov, O.Roziqov, A. G‘ulomov, M.Abdurayimova va boshqalarning metodik qo‘llanmalari, o‘qituvchi kitoblari, dars ishlanmalarida takrorlash masalalariga ko‘proq shu nuqtai nazardan yondashilgan⁴. Bir qator metodist – olimlarning (Sh. Yusupova, A. Bobomurodova va boshqalar) tadqiqot ishlarida takrorlash ishlarida turli o‘yinlarni tashkil etish amalga oshiriladi⁵. M. Mirmaxsudovning nomzodlik ishida 5-7- sinflarda grammatik termin- tushunchalarni turli tahlili, shuningdek, matn tahriri jarayonida takrorlash masalalarini tadqiq etildi⁶.

O‘tgan asrning 90 – yillarigacha M.Omilxonovanning “Maktabda sodda gap sintaksisini o‘rgatish”, “Maktabda ona tili sintaksisini o‘rganish” nomi qo‘llanmalari o‘quvchilarning qo‘llaridagi asosiy yo‘l – yo‘riqlar vazifasini o‘tadi. Ushbu ishlarda 7-(hozirda 8-) sinfdan sodda gap sintaksisini o‘rganish metodikasi

⁴Розикова Ою Ўзбек тилида дарс типлари- Т.: “Ўқитувчи”, 1976.-123 б.

o'sha bilan ishlab chiqilgan. M. Omilxonova bu qo'llanmalarida sintaksisni o'rganish jarayonida morfologiyani takrorlash zarurligi ta'lim mazmuni bilan bo'liq ravishda aytib o'tilgan, ammo uni yoritish masalasi alohida maqsad qilib olinmagan. Y. G'ulomov, I. Rasulov, H. Rustamov, B. Mirzaahmedovning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" kitobida bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun "takrorlash sistemasi" bo'lishiga katta e'tibor berilib, til bo'limlarini uzviy bog'langan holda o'rganish tavsiya etiladi⁷.

Ayrim metodist olimlar istiqloqligacha bo'lgan davr ona tili ta'limini bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va takrorlashdan iborat bo'lgan deb hisoblaydilar. Chunonchi, M. Saidov bunday yozadi: "...ona tili mashg'ulotlarida, ko'p hollarda, o'quvchi o'rganilgan bilimlarni xotirada tiklash, egallanganlarni eslashdan nariga o'tmaydi. Qisman ijodiy va ijodiy topshiriqlarni yetarli darajada ishga tushira olmaslik natijasida ular ijodiy faoliyatga tayyor bo'la olmaydilar. Bu ona tili mashg'ulotlarni tamoman yangi mazmun va yo'nalishda tashkil etishni, darsda o'quvchilarning mutloq hukumronligidan qutilib, keng ijodiy maydon muhitini yaratishni taqazo etadi"⁸. U o'z fikrini davom ettirib, bunday deydi: "o'quvchi faoliyatida tez- tez duch keladigan so'z qashshoqligi, fikr mantiqan to'g'ri bayon qila olmaslik, fikri mustaqil izchillikda bera olmaslik, bayon qilinishi lozim bo'lgan fikrlarni mantiqiy bo'laklarga to'g'ri ajrata olmaslik, mavzu talabidan chetda chiqish singari holler tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligini qayta xotirlash xarakteridagi o'quv topshiriqlaridan keng foydalanish natijasida yuzaga keladi".

O'tgan asrning 90-yillari ona tili o'quv fani metodikasi chuqur islohatlar davrini – ona tili ta'limini mazmuni va metodlarining konsepsiya asosida jiddiy yangilanish davrini boshdan kechirdi. Bu yangilanish, bir tomondan, ta'lim mazmunini yangidan ishlab chiqish bilan tavsiflanadi, ikkinchi tomondan

⁷G'ulomov, Y, Rasulov, I, Rustamov, H, Mirzaahmerov, D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi: Universitetlarning filologiya fakultetlari hamda pedagogika institutlarining til va adabiyot fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent. O'qituvchi, 1975.- 280 b.

⁸Saidov M. O'zbek maktablarining 5- inlarida ona tili talimi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: Ped. fan. nomzodi. ...diss

noan'anaviy ta'lim metodlari va usullari ustidagi izlanishlarda o'z ifodasini topadi. Shunga qaramay, XXI asr boshlarida o'quv fani ta'limi mazmuni va metodlarida jiddiy kamchiliklar ko'zga tashlana boshladi, bu kamchiliklar ko'proq uzviylik, uzluksizlik, majmuaviylikni ta'minlash, didaktika tomonlariga e'tibor berish, nutq madaniyatini o'stirish imkoniyatlarini kengaytirish zaruriyatida o'z ifodasini topadi. Shu bois, muayyan qarorlar asosida uzviylashgan ta'lim mazmunini shakillantirish, o'quv faniga oid darslik va qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Ijodiy metodlar didaktika yutuqlari bilan boyitildi. o'qituvchi – o'quvchi hamkorligi peragogikasi yangi pog'onaga ko'tarildi, yangi innovatsion texnologiya, axborot texnologiyalari tushunchalari ona tili darslariga ham keng kirib bordi.⁹

Bugun muhim metodik muammo sanaluvchi o'tilganlarni takrorlash, birinchi navbatda, "o'zbek maktablarida ona tilini o'qitish konsepsiyasi" talabidir. Unda tom ma'nodagi takrorlash haqida bo'lmasa-da, "Ona tilidan yangi mavzuni, yangi til hodisasini o'zlashtirishga bag'ishlangan har bir mashg'ulot o'tgan bilim, ko'nikma va malakalarni sanash va takrorlashdan tashqari quyidagi taxminiy qismlarni o'z ichiga oladi", deyilib, 5 punktdan iborat qismlar sanab o'tiladi. Demak, takrorlashni konsepsiyaning talabi deb ham hisoblash mumkin.

Umumiy o'rta ta'limning "Ona tili" davlat ta'lim standartida bilim, ko'nikma va malakalarga nisbatan belgilangan talablar "o'zlashtiriladigan meyorlar" da o'z aksini topib, ushbu meyorlarga ona tili darslarida takrorlashni yo'lga qo'ymasdan turib erishib bo'lmaydi. Zero, unda dastlabki meyorning o'zi "Fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo belgilari, tinish belgilari, bog'lanishli nutq, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar, ularning muhim belgilarini bilib olishlari, izohlay bilishlari va shu tushunchalar bilan bog'liq grammatik terminlarni o'zlashtirishlari" tarzida

⁹Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi \ Tuzuvchilar: A.A. karimov, E.Z. Imadov va b . Akademik T.T. Risqiyev umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Sharq. 2002. -15 b.

tariflangan.¹⁰ Ushbu me'yorlarni ta'minlash ta'lim metodlariga, birinchi navbatda, takrorlash usullariga bog'liq.

Takrorlash masalalari turli metodist olimlar tomonidan turli darajada tilga olingan. Masalan, T. U. Ziyodova, U. Zolmatova, X.T. Jumaniyozovalarning "O'qituvchi kitobi"da 5-sinf ona tili darsligi bo'yicha o'quv-metodik qo'llanmasida takrorlashga doir tavsiyalar alohida bayon etilgan bo'lsa-da, bir mashq munosabati bilan o'quvchilarga takrorlashning ahamiyati quyidagicha tushuntiriladi: "19- mashqning xulosasini 20 – mashqdagi "Bilimlar zanjiri" matni bilan bog'lanib o'rganilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. o'quvchilar matnni diqqat bilan o'qib. Bilim, ko'nikma va malakaning halqalardan iborat zanjiriga o'xshashi, zanjirning butunligini halqachalarning sinmasligi yoki uzilmasligiga bog'liqligi, ong va xotiradagi bilim ham zanjirga o'xshashligini bilib oladilar. Yangi ma'lumotlar oldingi bilimga ulansagina bilimlar zanjiri hosil bo'lishini, bilimlarni xotirada saqlash uchun ularni takrorlab turish lozimligini anglab yetadilar. "Mulla bo'lsang takror qil", Takrorlash - bilimlarning onasi" kabi hikmatli so'z va maqollar topadilar. Matnlar mazmunini anglagan o'quvchilar o'qituvchi yordamira quyidagi xulosaga kelishlari mumkin:

1. Bir ishni boshlagach, uni uzliksiz davom ettirsagina, ma'lum bir natijaga ko'rishish mumkin.
2. Yangi bilimlarni egallash uchun avvalgilarini esga solish lozim.
3. To'g'ri yo'ldan og'ishmay borish – muvaffaqiyat garovi.
4. Ikkinchi qavat faqat birinchi qavat ustiga quriladi va hakazo"¹¹

Ta'kidlash lozimki, 5-sinf "Ona tili" darsligiga doir metodik ko'rsatmalar tariqasida yaratilgan ushbu qo'llanmada yil boshida boshlang'ich sinflarda o'tilgan BKMLarni takrorlash masalalari alohida mavzular, shuningdek sintaksisga oid

¹⁰Davlat ta'lim standartiga sharx: Ona tili \ Umumiyy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Talim taraqqiyoti. Axborotnoma. 1 – maxsus son. –Toshkent: Sharq. 1999.- b. 46 -54.

¹¹Ziyodova T.U., Xolmatova U., Jumaniyozova X. T. O'qituvchi kitobi (5- sinf ona tili darsligi bo'yicha o'quv-metodik qo'llanma). – Toshkent: Xalq merosi, 2002. – 139 b.

mavzular doirasida ham ko‘rib chiqilmagan. Bevosita “Muqaddima” bo‘limida ham, o‘quvchilarga bevosita tanish “Mustaqil va yordamchi so‘zlar” bo‘limida ham takrorlashga murojaat etilmagan. Bunday munosabat quyi sinflarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarga vaqt o‘tishi bilan unutilish ehtimoli bor deb qaralmaganlik tufayli yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. A.G‘ulomov, M.Qodirovlarning “Ona tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida ona tili darslari quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi ta’kidlanadi: takrorlash, yangi bilim berish, bilimlarni ko‘nikma va malakaga aylantirish, o‘rganilganlarni mustahkamlash va darsni xulosalash, uyga vazifa berish¹². Darsning yangi bilim berish jarayonida ham, mustahkamlash va takrorlash jarayonlarida ham ijodiy-amaliy ishlarga keng o‘rin ajratilishi uqtirilib, xotirlash haqida shunday deyiladi: “Xotirlash – oldin o‘rganilgan til hodisalarini qayta xotirlashga asoslangan amaliy ishlardir. Xotirlashning: 1) tayyorlovchi xotirlash va 2) umumlashtiruvchi xotirlash kabi turlari bor. 1. Tayyorlovchi xotirlash. ...sintaksisni o‘rganishda, bog‘lovchilar haqida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchi xotirasida tiklash ehtiyoji tug‘iladi. Tayyorlovchi xotirlash yangi bilimlarni egallash uchun asos vazifasini o‘taydi. 2. Umumlashtiruvchi xotirlash (takrorlash). ...bog‘lovchilarning o‘zi 5-6 mashg‘ulotga bo‘linib, turlarga ajratilib o‘rganiladi va mashg‘ulotlarning oxirida umumlashtiruvchi xotirlash ishlari bajarilishi lozim...”¹³. Xullas, qo‘llanmada takrorlash ikki xil ma’noda tushuniladi: 1) o‘tilayotgan mavzudan oldin shu mavzuga aloqador bilimlarni eslatish; 2) bo‘lim yakunida shu bo‘limda o‘tilganlarni umumlashtirib takrorlash. Mualliflar umumlashtiruvchi xotirlash deganda sintaksisni o‘rganishda morfologiyani takrorlashni emas, balki har bir bo‘lim oxiridagi takrorlashni ko‘zda tutishgan. Ular bog‘lovchilar va ularning ma’no turlari o‘rganib bo‘lingandan keyingi takrorlashni misol qilib keltirishgan.

¹²G‘ulomov A, Kodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2001. –V. 66-67

¹³G‘ulomov A, Kodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2001. –V. 68-69

Shuningdek, qoʻllanmada oʻrganilganlarni takrorlash darslari ham ajratilib koʻrsatilgan¹⁴. Bunday ish boshida oʻtkaziladigan takrorlash nazarda tutiladi. Kitob mualliflari ona tili darslarining noanʻanaviy shakllari haqida soʻz yuritib, ularning maqsadiga ham toʻxtaladilar: Keyingi yillarda ona tili oʻqituvchilari ish amaliyotida noanʻanaviy darslarning qator turlari: “Topqirlar bellashuvi”, seminar darslari, bahs-munozara darslari, sirtqi sayohat darslari, yubiley darslari kabilardan keng foydalanmoqda. Bu norasmiy darslarning har biri oʻziga xos qurilishga ega boʻlsa-da, ammo ular bir maqsadga – darsda oʻquvchilarni taʼlim jarayonining subʼektiga aylantirish, til hodisalarini mustaqil izlanish orqali oʻrganishini taʼminlashga qaratilgan¹⁵. Bunday darslar koʻproq “muayyan boʻlim yoki yirik mavzular oʻrganilganidan soʻng oʻtkaziladi”¹⁶. Darsda oʻyin turlaridan foydalanish asos eʼtibori bilan oʻtilganlarni takrorlash maqsadiga ega boʻladi. Metodist olim A. Bobomurodova ona tilidan oʻquvchilarga beriladigan oʻyin-topshiriqlarni murakkablik darajasiga koʻra uch turga ajratar ekan, birinchi turiga qayta xotiralashga asoslangan oʻyin-topshiriqlari kiritiladi¹⁷. Faqat ushbu oʻyinlarning kamchilik tomoni borligini eslatadi: “Qayta xotiralashga asoslangan oʻyin-topshiriqlar oʻquvchilardan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qoʻllashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi. Bunday oʻyin-topshiriqlarni bajarish oʻquvchiga katta murakkablik tugʻdirmaydi, oldin oʻrganilgan mavzular va muayyan bilimga ega boʻlgan oʻquvchi bunday topshiriqlarni bemalol bajarishi mumkin”¹⁸. Albatta, topshiriqlarni bemalol bajarish uchun bilim, koʻnikma va malakalar yaxshi egallangan boʻlishi lozim. Uning uchun esa oʻquvchi oʻzi unutgan narsalarini xotiraga tushirish haqida izlashi, biror yoʻl bilan oʻqib olishi, sinfdoshlaridan eshitib boʻlsa ham, bilib turishi lozim. Anʻanaviy usullarda ham, noanʻanaviy usullarda ham, yaʼni ikkala yoʻnalishda ham bilim, koʻnikma va

¹⁴Gʻulomov A, Kodirov M. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2001. –B. 70

¹⁵Gʻulomov A, Kodirov M. Ona tilini oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2001. –B. 74

¹⁶Gʻulomov A, Kodirov M. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2001. –B. 77

¹⁷Bobomurodova A. Ya Ona tili talim jarayonida oʻyin-topshiriqlardan foydalanish: Ped. Fan. Nomz.diss. – Toshkent, 1996. – 146 b.

¹⁸Bobomurodova A. Ya Ona tili talim jarayonida oʻyin-topshiriqlardan foydalanish: Ped. Fan.nomz.diss. – Toshkent, 1996. – D.O.

malakalarni o'quvchilar xotirasiga tushirishda e'tibor ko'proq bilimlarga qaratilmoqda va bir yo'qlamalikka yo'l qo'yilmoqda. Bugungi kunda amal qilinayotgan ikkinchi hol bilimlarni o'zlashtirish sifatiga erishishda ba'zan o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatish barobarida yetarli samara bermayotganligini ta'kidlash zarur. X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, U.Shermatovalar tomonidan tayyorlangan "4-sinfda ona tili darslari" qo'llanmasida o'yinlardan foydalanish o'rni quyidagi tarzda ko'rsatilgan: "sinfda bajarishga mo'ljallangan mashqlar ustida ishlab bo'lingach, darsning o'tilgan mavzusini so'rash va uy vazifasini tekshirish qismida o'qituvchi qo'shimcha ish turlaridan: kartochkalardan, turli ta'limiy o'yinlardan mustaqil ishlardan, ta'limiy diktantlar va testlardan foydalanishi mumkin"¹⁹. Yuqori sinflarda ham o'yinlar ko'pincha shu tahlitda tashkil etiladi va o'tkaziladi. A.R.Sayfullayev, R.R.Sayfullayevalarning 8-sinf materiallari asosida tayyorlangan "Ona tili darslarida nutq o'stirish" qo'llanmasida "7-sinf materiallarini takrorlash jarayonida nutq o'stirish" deb nomlangan qism ajratilgan va unda H.Ne'matov, N.Mahmudov, R.Sayfullaeva, A.G'ulomov, M.Abduraimovalar muallifligida yozilgan 8-sinf "Ona tili" darsligidagi matnni tahlil qilish, fe'l-kesim, fellarning mayl, zamon, shaxs-son shakllarini takrorlashga doir materiallar ustida ishlash yuzasidan tafsiyalar bayon qilingan²⁰. Qo'llanmada keltirilgan tavsiyalardan bir namuna: "Fe'lning zamon, shaxs-son shakllarini takrorlashni fe'l zamonlarini eslash bilan boshlash mumkin. O'qituvchi o'quvchilaridan fe'l zamonlarini, ularga misol keltirishini so'raydi. O'qituvchilar o'tgan, hozirgi, kelasi zamon fe'llarini misol keltiradilar"²¹. Mashq bajarishda felning zamoni, shaxs-soni, nisbati va boshqalarni qavs ichida ko'rsatish tavsiya qilinadi. Mualliflar mashq materiallari asosida o'quvchilarning ijodiy (og'zaki va yozma) nutqini o'stirishga ham alohida e'tibor berishadi, berilgan fe'llarni uch zamonda qo'llash, har biriga misollar keltirish kabi

¹⁹G'ulomova X. vaboshq, 4-sinfda onatili darslari: (uslubiy qo'llanma). Muallif: X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, U.Shermatova. - Toshkent: O'qituvchi, 2003-161.

²⁰Sayfullayev A.R., Sayfullayeva R.R. Onatili darslaridan nutq o'stirish (8-sinf materiallari asosida metodik qo'llanma). - Toshkent: UzPFITI, 2002-51b.

²¹Sayfullayev A.R., Sayfullayeva R.R. Ona tili darslarida nutq o'stirish (8-sinf materiallari asosida metodik qo'llanma). - Toshkent: UzPFITI, 2002-51b.

topshiriqlarni ham havola qilishadi. Qo‘llanmaning sintaksisga oid mavzularni o‘rganish haqidagi qismlarida morfologiyadan o‘tilganlarni takrorlash masalasi qo‘yilmaydi. Faqat mavzuni qay tarzda tushintirish kerakligiga ishora bor xolos. Masalan, “Ot kesimni o‘rgatishni kesimning ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so‘zlar bilan ifodalanishini eslash bilan boshlash mumkin”²². 5-7-sinflar “Ona tili” darsligiga doim o‘qituvchilar uchun mo‘ljallab tayyorlangan metodik qo‘llanmalarda har bir bo‘lim oxiridagi takrorlash “mustahkamlash” so‘zi bilan atalgan²³. 6-sinf uchun chiqarilgan metodik qo‘llanmada ayrim til hodisalarini gramatik topishmoqlar yordamida takrorlash tavsiya etilgan²⁴. O‘quv yili oxiridagi takrorlash darslari ayrim metodik qo‘llanmalarida, masalan, 9-sinf uchun yaratilgan ishda boshidan oxirigacha o‘yin shaklida rejalashtiriladi²⁵. Masalan, 9-sinfda 68-darsda qo‘shma gaplar bo‘yicha o‘tilganlarini takrorlash “Qo‘shma gaplar guldastasini yasaymiz” o‘yini bilan boshlanadi.

M.Abduraimova, M.Qodirov, G.Abdumatovalar muallifligida yaratilgan “Ona tili.8-sinf. O‘qituvchi metodik qo‘llanmasi”da yil boshida o‘tilganlarini qaytarish yuzasidan berilgan yo‘riqlarga ko‘ra “mustaqil so‘z turkumlari” mavzusini takrorlashga doir quyidagi ish turlari bajariladi: darslikdagi mashqlar asosida o‘qituvchilar berilgan so‘zlarni jadvalga joylashtiradilar; so‘zlar nimaga asoslanib turkumlarga ajratilganligi hususida suhbat tashkil etiladi; “Topqirlar bellashuvi” o‘tkaziladi²⁶. “Topqirlar bellashuvi”da har bir guruh qaysi so‘z turkumi tushsa, shu turkumga oid 10 tadan misol topib yozadi va mazkur so‘z turkumlarining xususiyatlarini sharhlashga tayyorgarlik ko‘radilar. Javoblar tinglanadi, to‘ldiriladi. Qo‘llanmada 5-dars mavzusi yuzasidan yuqoridagi

²²Sayfullayev A.R., Sayfullayeva R.R Ona tili darslarida nutq o‘stirish (8-sinf materiallari asosida metodik qo‘llanma). – Toshkent: O‘zPFITI, 2002. – B. 35.

²³ Mahmudov N., Nurmonov A. va boshqalar. Ona tili.5-sinf. / O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2004. – 176 b. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili.7-sinf. / O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – Toshkent: Ma‘naviyat. 2005. – 141 b. Uloqov N.M., G‘oyibnazarova N.R. Ona tili. 6-sinf: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / N.M.Uloqov, N.R.G‘oyibnazarov, - Toshkent: ”Tasvir” nashriyot uyi, 2005. – 192 b.

²⁴Uloqov N.M., G‘oyibnazarova N.R. Ona tili. 6-sinf: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / N.M.Uloqov, N.R.G‘oyibnazarova, - Toshkent:”Tasvir” nashriyot uyi, 2005. – 192b.

²⁵ Uloqov N.M., Nurmonova D.A. Ona tili. 9-sinf: O‘qituvchilar uchun metod. qo‘llanma / D.A.Nurmonova, N.M.Uloqov. – Toshkent: ”Tasvir”nashriyot uyi, 2006. – 128 b.

²⁶Abduraimova M. va b. Ona tili. 8-sinf o‘qituvchi metodik qo‘llanmasi / Abduraimova. M Qodirov G. Abdumatova. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2006. – 144 b.

tartibdagi ishlardan so'ng, 19-mashq topshirig'i bajarilgach, quyidagi tavsiya beriladi: "Mashq matni shu tarzda tahlil qilingandan so'ng o'qituvchi quyidagilarni qo'shimcha qiladi. Undov so'zlar his-hayajon, haydash-chaqirish kabi ma'nolarni ifodalab, ko'pincha undov sifatida qo'llanadi, ba'zan otlashib, gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin, ba'zan esa so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no qo'shadi". Bunda o'tilganlar yuzasidan yangi bilim berish kuzatiladi. Yangi bilimlar esa, o'z navbatida, mustahkamlanishi lozim

Takrorlashda o'quvchilarning nimalarni bilishlari, nimalarni unutganliklarini hisobga olish muhimdir. Shuning uchun takrorlash bilan bog'liq ta'lim mazmuniga ish jarayonida aniqlik kiritib borish zarur. Bunda mavzuga doir bilim doirasini kengaytirishni ham ko'zda tutish maqsadga muvofiq. Bizningcha, fe'l mavzusida kam o'rganiladigan shakllarga e'tiborni kuchaytirish mumkin. Boshqacha aytganda, morfologik shakllarni, ayniqsa, fe'l shakllarini to'liq esga olish takrorlash bilan bog'liq eng muhim, nutq madaniyatini shakllantirish samaradorligiga dahldor metodik muammodir. O.Roziqov "O'zbek tilidan darstiplari" kitobida takrorlashning maqsadiga ko'ra 6 xil bo'lishini uqtiradi. Ularni umumlashtirib, quyidagi tarzda qisqa tasnif etish mumkin: 1) o'quv yili boshidagi takrorlash, 2) o'quv yili oxiridagi yakuniy takrorlash, 3) oldin o'rganilgan bilimlarni o'quvchilar esiga tushirish uchun takrorlash, 4) darsda o'rganilgan yangi o'quv materialini takrorlash, 5) kata mavzu, bo'lim yakunidagi takrorlash, 6) ma'lum o'quv materialini kelgusi o'quv soatida takrorlash. Muallif nazarda tutgan takrorlashning ikkinchi-oltinchi xillari ushbu sinfda o'rganiladigan yangi materiallar bilan bog'liqdir. Quyi sinfda o'tilganlar takrorlashning birinchi turdagini ko'zda tutiladi. Bunday takrorlash bilan sira ham kifoyalanib bo'lmaydi hamda bilim, ko'nikma va malakalarni yil davomida esga olib borishni ta'minlamaydi, umuman o'tilganlarni muntazam qaytarib turish ishini e'tibordan chetda qoldiradi.

Sh.Yusupovanning "Ona tili ta'lim samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy etish (noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish)"

mavzusidagi nomzodlik tadqiqot ishida noan'anaviy darslar haqida so'z yuritar ekan, quyidagi fikrni ilgari suradi: "Noan'anaviy dars sinfda yoki sinfdan tashqarida o'tkazilishi, ko'proq umumlashtirish, takrorlash, mustahkamlash mashg'ulotlaridan iborat bo'lishi mumkin"²⁷. Muallif "Tez yurar" usuli, "Bu bizniki" "Yoki bu meniki" o'yin mashqini nazariy va amaliy bilimlarini puxtalash metodlari sifatida tavsiya etadi. "Tez yurar" usulida o'quvchilarga o'tilgan mavzular bo'yicha har biriga 2 sekund ichida javob qaytarish sharti bilan 30-40 ta savol beriladi. Tadqiqotchining xulosasiga ko'ra, "Bu kabi takrorlash xotirada qoldirishning puxtaligiga ta'sir qiluvchi metodlardan sanaladi"²⁸. Sh.Yusupovaning "Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishni ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida)" mavzusidagi doktorlik tadqiqot ishida "Tezyurar", "Bu bizniki" kabi o'yin usuli akademik litseylarda sinab ko'rib, yaxshi natijalar olinadi"²⁹. Aslida takrorlash muammolarini hal etish uchun ta'lim mazmuni va metodlari bilan bog'liq tadqiqot ishlarini amalga oshirish talab etiladi, takrorlash shakllari, vositalari, metod va usullarining yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, innovatsiyalar nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi metodik zaruriyat sanaladi N.Sayidahmedovaning "Yangi pedagogik texnologiyalar" deb nomlangan uslubiy qo'llanmasida kichik guruhlarda ishlash muammosi alohida mavzu sifatida yoritilgan bo'lib, unda "kichik guruhlarda ishlash" atamasiga ta'rif beriladi, uni qo'llash usullari tahlil qilinadi.

Shuningdek, qo'llanmada "Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash"ga oid ko'rsatmalar ham berilgan, "Menyu" "Debatlar", "Tanqidiy fikrlash" kabi metodlarning fan sohalarida qo'llanilishi yoritilgan, aynan kichik guruhlarda ishlash metodi takrorlash jarayoni uchun juda maqul ish turlaridan sanaladi.

²⁷YusupovaSh. J. Ona tili talimi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy yetish (noananaviy usullar va kompyuterdan foydalanish):Ped.Fan.Nomzodi... diss. – Toshkent, 1998.– 26 b.

²⁸Yusupova Sh.J. Ona tili talimi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy yetish (noananaviy usullar va kompyuterdan foydalanish):Ped.Fan.Nomzodi... diss. – Toshkent, 1998.–B 12.

²⁹YusupovaSh.J. Hozirgi O'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari:Ped.fan. Doktori... diss. – Toshkent, 2005-270b;diss. Avtoreferati.– 44b.

R.J.Eshmuhammedovning “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari”³⁰ nomli monografiyasida ham samaradorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati to’g’risida aytib o’tilgan. Ushbu uslubiy qo’llanmada o’qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, treninglar va ochiq munozaralar o’tkazish, yakka, juftlikda, kichik guruhlar va jamoada ishlashni taklif qilish hamda o’quvchilar va tinglovchilarni pedagogik jarayonga tayyorlash masalalari yuzasidan tavsiyalar, shuningdek, dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo’llagan holda o’tkazilgan darslardan namunalar, ularni o’tkazish metodikasi, bunday darslarni kuzatish hamda uni tahlil qilish bo’yicha fikr mulohazalar o’z ifodasini topgan shuning bilan birga akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda tashkil qilinadigan turli ritual, tarbiyali tadbirlarni o’tkazish bo’yicha tavsiyalar ham berilgan, bundan, albatta, maktab va akademik litsey ona tili ta’limi jarayonidagi takrorlashga oid darslarda unumli foydalanish joiz.

Z.O.Haydarovning “ta’lim jarayonida interfaol o’qitish usullarini qo’llashning ahamiyati” nomli maqolasida³¹ “Interaktiv” tushunchasiga ta’rif beriladi. Interaktiv ta’lim metodining dialogik talim metodi ekanligi, uning o’quvchi va o’qituvchi yoki o’quvchi va kompyuter o’rtasidagi o’zaro birgalikdagi faoliyat jarayonini ko’zda tutishi haqida fikr bildiriladi. Muallifning fikricha, mazkur o’qitish metodi bilish faoliyatini maxsus shaklda tashkil etish degan manoni bildiradi. Interaktiv o’qitish metodini qo’llash jarayonida o’quvchilarning barchasi bilish jarayonida faol qatnashadilar, ular o’zlari bilgan, esga tushirgan, o’ylagan ma’lumotlariga tayanishlari, ulardan bilish jarayonida foydalanishlari mumkinligini tushunadilar va shunga moslashadilar. Birgalikdagi aqliy bilish, izlanish faoliyatida har bir o’quvchi shaxsan ishtirok etib, unga o’z hissasini qo’shadi.

³⁰Eshmuhammedov.R.J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari”. – T,2009, 3-b.

³¹Z.O.Haydarov Ta’lim jarayonida interfaol o’qitish usullari qo’llashning ahamiyati.“Ta’lim texnologiyalari”, 2013-y, 3-son, 17b.

Bilimlari, g'oyalari, qarashlari, nuqtai nazarlari, faoliyat ko'rsatish usullari bilan o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar. Bu jarayon samimiylilik bir-birlarini o'zaro qo'llab quvvatlash kabi fazilatlar hisobiga amalga oshirilishi kerakki, bu esa ularning bilish jarayonidagi hamkorligini mustahkamlaydi. Fikrlarini davom ettirgan holda interaktiv faoliyatning 5 ta asosiy elementlarni sanab beradi:

1. Ijobiy-samimiy o'zaro bog'liqlik.
2. Guruhda shaxsiy mas'uliyatni his qilish.
3. hamkorlikda ishlash malakasi.
4. Bir-biriga ta'sir etuvchi o'zaro faoliyat.
5. Guruhda ishlay olish malakasi.

D. Abdurazzoqovaning "Zamonaviy talim kutubxonasi" ruknida yoritilgan "Kichik guruhlarni tashkil etish qoidalari" nomli maqolasida kichik guruhlarni tashkil etishda unda o'quvchilarning guruhlarga taqsimlash usullari va o'sha jarayonda nimalarga diqqatni qaratish zarurligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Quyidagi shartlarni sanab o'tadi: 1) har bir guruhda shu fanni yaxshi biladigan o'quvchi bilan birga o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchi ham bo'lishi shart; 2) guruhdagi o'quvchilar bir-birini tushunadigan bo'lishi maqsadga muvofiq. 3) guruhdagi o'quvchilar yuzma-yuz o'tirishlari kerak; 4) vazifani boshqa guruhlarga nisbatan oldin bajarib bo'lgan guruh ishtirokchilariga qo'shimcha topshiriqlar ham oldindan tayyorlanishi lozim; 5) taqdimot vaqtida har gal boshqa-boshqa o'quvchining chiqishi muhimligini inobatga olish zarur³². Shunday qilib metodik adabiyotlarda takrorlash darslarini tashkil etishning mazmuni, shuningdek, yangi o'rganilayotgan mavzu bilan oldingi o'rganilgan ma'lumotlarni uyg'unlikda olib borish va o'tilgan qaysi materiallar qay hajmda va qachon takrorlanishi kerakligi masalasi tadqiq etilmaganligini ko'rsatadi.

³²Abdurazzoqova D. Kichik guruhlarni tashkil etish qoidalari. "Umumtalim fanlari metodikasi". 2013.3-son 16-bet.

1.2. Takrorlash darslari yuzasidan ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarining tahlili

Bugungi kunda ona tilidan berilayotgan bilim, hosil qilinayotgan ko'nikma va malakalarni tiklab borish, zarur bo'lganda takrorlash yo'li bilan qayta o'rganishga ehtiyoj kuchli. Buning sababini M.Mirmaxsudova shunday tushuntiradi: "Lekin ayni paytda grammatik terminlarning o'zlashtirilishiga bo'lgan talab susaytirilgani tufayli ularning borib-borib unutilib ketishi bilan tavsiflanuvchi vaziyat yuzaga keldi³³. Shu nuqtayi nazar bilan metodik muammoning darsliklar bilan bog'liq bir qirrasini ochib berishga va unga oydinlik kiritishga harakat qildik. Biz amaldagi 5-6-8 sinflarning "Ona tili" hamda ularda oldin o'rganilgan grammatik termin-tushunchalarning darslar bo'yicha uchrashib (bunda asosiy e'tibor sintaksis mavzularini o'tishda oldin o'rganilgan morfologik termin-tushunchalarning takrorlash imkoniyatlariga qaratdik)ni batafsil tahlil qildik.

O'quvchilar yangi mavzuni o'rganish jarayonida oldingi o'rganilganlar mavzularga doir ayrim nazariy ma'lumotlarda, mashq va topshiriq shartlarida oldingi o'rganilgan termin-tushunchalarga duch keladilar. Masalan, 6-sinf "Ona tili" darligini olib ko'raylik³⁴. Ushbu darslikda takrorlash uchun 5 soat ajratilgan. Darslikda 5-sinfda o'tilganlarni takrorlash yuzasidan mavzular berilgan. Chunonchi, 6-sinfda o'quv yili boshida 2-darsda "Unli tovushlar"; 3-darsda "Undosh tovushlar"; 4-darsda "O'zbek alifbosi va imlo qoidalari"; 5-darsda "Bo'g'in va urg'u"; 6-darsda "Leksikologiya va lug'atshunoslik" mavzulari takrorlanadi. Unli va undosh tovushlar, bo'g'in va urg'u mavzularini o'zlashtirish o'quvchilarning fonetika bo'limi yuzasidan ma'lumotini oshirish uchun xizmat qiladi. Yil boshidagi takrorlash orqali fonetika bo'limi yuzasidan o'quvchilarning bilimlari ancha mustahkamlanadi.

³³Mirmaxsudova M. O'quvchilar nutqini takomillashtirishda Grammatik terminlardan foydalanishning lingvometodik asoslari (5 – 7-sinf ona tili darslari misolida)ped.fan.nom...diss. Toshkent. 2004. – 160b.

³⁴Ona tili.Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik/ Mual.N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.5-10b.

Dastur asosida yaratilgan 5-sinf “Ona tili” darsligining 16-64-darslarida “Sintaksis va punktuatsiya” bo‘limi o‘tilar ekan, mashq shartlarida quyidagi termin-tushunchalar, morfologik vositalar tilga olinadi: 16-darsdagi 57-mashqda so‘zlarning gapda nimalar yordamida o‘zaro bog‘lanayotganini tushuntirish, 17-darsdagi 61-mashqda berilgan so‘zlardan gaplar tuzish va so‘zlarning bog‘lanishiga alohida diqqat qilish, 18-darsdagi 1-topshiriqdagi berilgan so‘zlarni bir-biriga bog‘lab gaplar tuzish, so‘zlarni bog‘lash uchun nimalar qilganliklarini aytish; 2-topshiriqda berilgan gapdagi so‘zlar orasiga va bog‘lovchisini qo‘yish; 65-mashqda noto‘g‘ri bog‘langan so‘z birikmalarini topish va ular nima sababdan bir-biriga bog‘lanmasligini tushuntirib berish; 20-darsdagi 76-mashqda teng bog‘lanish usuli bilan hosil qilingan so‘z birikmalarini daftarga yozish va so‘zlarni bog‘lovchi vositaga diqqat qilish so‘ralar ekan, bunda asosan kelishik shakllari bog‘lovchilar va ko‘makchilar nazarda tutiladi. Chunonchi, 18-darsda: “Gap tarkibida ishtirok etgan so‘zlar bir-biri bilan bog‘lanadi. Masalan: qir va adir, Oygul bilan Baxtiyor; gulni hidlamoq, maktabga kelmoq kabi. Misollardan ko‘rinadiki, so‘zlarning bog‘lanishi bir xil emas. Ayrim so‘zlar va, ham, hamda, bilan singari bog‘lovchi va bog‘lovchi vositasidagi so‘zlar yoki sanash ohangi yordamida, boshqalarida esa birinchi qism ikkinchi qismga - ning, - da, - dan, -ni kabi qo‘shimchalar, tomon, to‘g‘risida, haqida, uchun singari yordamchi so‘zlar bilan bog‘lanadi. 23-darsda: So‘roq gaplar so‘roq olmoshlar (kim?, nima?, qayer?, qancha?, kabi), so‘roq yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya) yoki so‘roq ohangi yordamida ifodalanadi. 26-darsdagi topshiriqda fe‘l ishtirokida ikkita gap tuzish talab etiladi va 5-sinfda ilk bor fe‘l termini ishlatiladi. 40-darsda: To‘ldiruvchi hokim bo‘lakka kelishik qo‘shimchalar yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi ta’kidlanadi. Eslatish joizki, 4-sinfda so‘z turkumlaridan ot, sifat, son, fe‘l, kishilik olmoshlari bilan bog‘liq mavzular o‘tiladi. Lekin so‘roq olmoshi, so‘roq yuklamalari, yordamchi so‘zlar, bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar, ko‘makchilar o‘rganilmaydi. Bu darsda qoidadan avval ikkita topshiriq kelgan.

1-topshiriq shartiga ko‘ra nuqtalar o‘rniga tegishli bog‘lovchi vositani qo‘yib ko‘chirish, 2-topshiriqda berilgan gapning hokim bo‘lakka nima vositasida bog‘langanini aytish talab etilgan. Birinchisida kelishik, ikkinchisida ko‘makchi ishtirok etgan. Qoida shu mazmunda bo‘lgani uchun shu bog‘lovchi vositalarga urg‘u berilgan. 43-darsdagi 156-mashqda gaplar tuzish ularda sifat, son, olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchilarni qo‘llash talab etiladi. Bu yerda ilk bor sifat, son terminlari tilga olinadi. Ko‘rinib turganidek, 5-sinf “Ona tili” darsligining “Sintaksis va punktuatsiya” bo‘limida morfologiyadan boshlang‘ich sinflarda o‘tilgan materiallarning bir qismigina tilga olingan. Bizningcha, bo‘limni o‘rganish mobaynida so‘z turkumlari bo‘yicha olingan bilimlar, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar vaqti-vaqti bilan takrorlab borilishi, bog‘lovchi, bog‘lovchi vazifasidagi so‘z, ko‘makchi, so‘roq olmoshi, so‘roq yuklamasi terminlari uchrashiga qarab izohlanishi kerak. 5-9 sinflar “Ona tili” dasturining 8-sinf qismida yil boshida takrorlash uchun 6 soat ajratilgan bo‘lib, bunda ko‘rsatilgan mavzular, asosan, imlo qoidalarinigina ifoda etadi³⁵. Aytmoqchimizki, dasturda morfologiyadan quyi sinflarda o‘tilganlarni takrorlash mutlaqo ko‘zda tutilmagan.

Dastur asosida yaratilgan 8-sinf “Ona tili” darsligida yil boshida morfologiyadan O‘tilganlarni takrorlash uchun berilgan materiallarni ta’lim mazmunidagi dastlabki yirik imkoniyatlar sanaladi³⁶. Chunonchi, 8-sinfda o‘quv yili boshida 3-darsda “Mustaqil so‘z turkumlari” (mustaqil so‘z turkumi, ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish, ot so‘zlar, ot o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z turkumi); 4-darsda “Yordamchi so‘z turkumlari” (yordamchi so‘z turkumi, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama); 5-darsda “Undov, taqlid va modal so‘zlar”(undov, taqlid va modal so‘z, ma’no turlari); 6-darsda “Olmoshning ma’no turlari” (kishilik olmoshi, O‘zlik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, so‘roq olmoshi, belgilash olmoshi, bo‘lishsizlik olmoshi, gumon olmoshi); 7-darsda “Ravishning ma’no turlari” (ravish so‘zlar,

³⁵Umumiy o‘rta ta’lim maktablari sinov dasturlari. Ona tili 5 – 9-sinflar./Y.Abdullayev, A.R.Sayfullayev .- Toshkent: O‘zPFITI. 1999. 21b.

³⁶Qodirov M. Ne‘matov H. va b.Ona tili.8-sinf uchun darslik –Toshkent. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006.-144b.

holat ravishi, miqdor-daraja ravishi, o‘rin ravishi, payt ravishi, yasama ravishlar) mavzulari takrorlanadi.

Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalarning ma‘no turlarini o‘zlashtirish o‘quvchilarning filologik ma‘lumotini oshirish uchun xizmat qiladi. Sintaktik qurilmalar boyligini egallash uchun esa ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar ro‘yxatini to‘liqroq takrorlash zarur. E‘tirof etish kerakki, quyi sinflarda ham bunday mukammal ro‘yxatlar ustida ish olib borilmaydi. Olmosh va ravishlarda esa bunday emas. Bu yerda ularning vazifalariga kengroq to‘xtalish joiz.

Yil boshidagi takrorlash orqali mustaqil so‘z turkumi, ot, sifat, son, olmosh, olmoshning ma‘no turi, kishilik olmoshi, bo‘lishsizlik olmoshi, o‘zlik olmoshi, gumon olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, so‘roq olmoshi, belgilash olmoshi; fe‘l; ravish; ravishning ma‘no turi, holat ravishi, miqdor-daraja ravishi, o‘rin ravishi, payt ravishi, yasama ravishlar; ot o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z turkumi; yordamchi so‘z turkumi, bog‘lovchi, teng bog‘lovchilar, ko‘makchi, yuklama, undov, taqlid va modal so‘z termin tushunchalarini takrorlash imkoniyati yuzaga keltirilgan. Ko‘rinadiki, 3-7-darslarda morfologiyaning asosiy bo‘limlari (tasniflar) bir sidra takrorlab chiqiladi. Lekin, kuzatishlarga qaraganda, morfologiyadan 5-7-sinflarda o‘rganilgan materiallarni o‘quvchilarning xotirasida to‘liq tiklab turish uchun ularni bu tariqa bir sidra takrorlab chiqish sira ham kifoya qilmaydi. Bu ishni keyingi darslarda ham bajarib borish zaruriyati mavjud.

8-sinf “Ona tili” darsligida sintaksisga doir mavzular yuzasidan berilgan ma‘lumotlar, mashq materiallarida, topshiriqlarda morfologik termin-tushunchalar tilga olingan, eslab aytish so‘ralgan, shu munosabat bilan takrorlash imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu imkoniyatning qay darajada ekanligi morfologiyaga qilingan murojaatlar hajmiga ko‘ra aniqlanadi. Ana shu imkoniyat tufayli o‘quvchilar xotirasida tiklanishi mumkin bo‘lgan morfologik tushunchalarni ko‘rib chiqamiz.

Darslikning 8-15-darslari ijodiy matn, insho va uning turlari bilan bog‘liq ravishda nutq o‘stirish uchun juda muhim masalalarga bag‘ishlangan. Chunonchi

ma'lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matn; insho – ijodiy mehnatning oliy ko'inishi. Insho – ijodiy mehnat (Ta'limiy insho, sinov insholari); adabiy mavzudagi insho, adabiy-ijodiy mavzudagi insho (oddiy yozma tasvirlar, hikoya maktub), erkin mavzudagi insho; inshoga epigraf tanlash.(So'roq gap, undov gap, hikmatli so'z, maqol, ibora, badiiy parcha). 14-va15- darslarda yozma nazorat ishi va uning tahlili bajariladi. Ushbu darslarda o'zbek adabiy tilining me'yori haqida gapiriladi. Qo'shimchalar va ularni qo'llashdagi qo'pol xatolar xususida fikr yuritiladi.

Ta'kidlash lozimki, amaldagi 8-sinf "Ona tili" darsligidagi 8-15-darslarning 5-7-sinflarda o'rganilgan morfologik termin-tushunchalarni takrorlashda davom etishdagi imkoniyatlari yo'q darajada. Bunday bo'lishi tabiiy bir hol, chunki bu darslar to'lig'icha insho yozish masalalaridan bahs yuritadi. Bunday paytlarda morfologiyani takrorlashda uzilish yuzaga kelib, o'qituvchilarning ish tajribasida muayyan qiyinchiliklarni, o'ziga xos metodik muammoni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, o'quv yilining birinchi choragi materiallarida, ya'ni nazariy ma'lumotlarda, mashq va topshiriqlar shartlarida quyidagi termin-tushunchalarga murojaat etilgan: mustaqil so'z turkumi; ot, sifat, son, olmosh; olmoshning ma'no turi kishilik olmoshi, o'zlik olmoshi, ko'rsatish olmoshi, so'roq olmoshi, belgilash olmoshi, bo'lishsizlik olmoshi, gumon olmoshi; fe'l; ravish, ravishning ma'no turlari (holat ravishi, miqdor-daraja ravishi o'rin ravishi, payt ravishi, yasama ravishlar; ot o'rnida qo'llanuvchi so'z turkumi; yordamchi so'z turkumi, ko'makchi, bog'lovchi, teng bog'lovchilar, yuklama; undov, taqlid va modal so'z, so'z, qo'shimcha ma'no kelishik qo'shimchasi, egalik qo'shimchasi, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi; qo'shma so'z.

Bu yerda keltirilgan termin-tushunchalarning ko'p qismi o'quv yili boshidagi takrorlash zimmasiga tushadi.

Ma'lumki, kelishiklarni takrorlash ikki xil maqsad bilan amalga oshirilishi mumkin: 1) bilimlarni esga tushurish; 2) amaliy malakalarni tiklash. Darslikda bu ishdan ko'proq bilimlarni esga tushurish maqsad qilib olingan. Amaliy malakalarni tiklash uchun esa grammatik shakllarni nutqda qo'llash amallari bajarilishi lozim. Bugina emas, ona tili o'qituvchilari oldida turgan vazifalardan biri o'quvchilarni "bir ma'noni turli shakllarda bera olish ko'nikmasini shakllantirish" ga o'rgatishdir³⁷. Shunday ekan, ushbu yo'nalishdagi takrorlash mashqlari ham darslarda ko'proq aks etgani ma'qul. Shundagina o'quvchilarning tilga doir malakalarini maksimal darajada erkin, muloqotning takomillashgan quroliga aylantirish mumkin³⁸.

Biz yuqorida umumta'lim maktablarining 5- va 8-sinf "Ona tili" darsliklarining asosan sintaksisga oid ma'lumotlarni morfologiyadan o'tilganlarni takrorlash imkoniyatlari nuqtayi nazaridan darslik tahliliga e'tiborni qaratdik. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" dastur va darsliklarida ham takrorlash imkoniyatlari talaygina. Chunonchi, uni yangi mavzularni o'tishga oid darslar miqyosida ham, qolaversa, o'quv yili boshida va oxirida, yarim yillik yakunlarida ham bisyor. Masalan, 2-bosqichda o'rganiladigan "Morfologiya" ta'limiga oid mavzularini olaylik. Ot va uning xususiyatlari, sifat va uning uslubiyati, sifat darajalari va sifat yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari, son va uning uslubiy xususiyatlari, kelishik va egalik shakllari hamda ularning uslubiy xususiyatlari, fe'l va uning uslubiy xususiyatlari nisbat va mayl qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari, shaxs-son va zamon qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlari kabi (bu ro'yxatni davom ettirish mumkin)larni keltirib o'tish mumkin. Uslubiy xususiyatlari haqida nazariy va amaliy bilimlarni o'quvchiga taqdim etishdan oldin, albatta, sof nazariy termin-tushunchalarning yodga olinishi uning uslubiy xususiyatlarini o'rgatishda, o'quvchilarda uslubiy xususiyatlari haqida bilim, ko'nikma va malakalar hosil

³⁷Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / Mual. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011, 224b.

³⁸Методика преподавания русского языка // под ред. М.Т.Баранова. – М: просвещение. 1990 – 365 с.

qilishda poydevor vazifasini o‘taydi³⁹. Bulardan tashqari, birinchi bosqichda o‘quv yili boshida takrorlash uchun ajratilgan quyidagi darslar: Fonetika yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash (1-dars), leksikologiya yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash (2-dars), gramatika yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash (3-dars), to‘laligicha takrorlash darslari sanaladi⁴⁰. 2-bosqichida o‘quv yili boshida o‘tilganlarni takrorlash (1-dars)⁴¹, 3-bosqichda o‘quv yili boshida takrorlash uchun ajratilgan fonetika va leksikologiya yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash (1-dars) va morfologiya yuzasidan o‘tilganlarni takrorlash⁴² hamda o‘quv yili oxirida o‘tilganlarni takrorlash⁴³ ham xuddi shunday darslar sirasiga kiradi.

Demak, maktab va akademik litsey ona tili ta’limi dastur va darsliklarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda yangi mavzuni o‘qitish jarayonida ham, takrorlash berilgan alohida darslarda ham takrorlash darslarini ham qiziqarli, ham kompleks xotiraga tushirish ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarini talaygina, faqat ularni ma’lum bir ketma-ketlikda, yaxlit tizim sifatida tashkil etish lozim. Unda, albatta, takrorlash mazmuni, takrorlash materiallari, takrorlashni amalga oshirishda qo‘llaniladigan metod va usullar, innovatsion va axborot texnologiyalari uyg‘unligi ta’minlanishi lozim.

³⁹Nurmonov A, Sobirov A, Mahmudov N, Qosimova N, Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-2-3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. Ikkinchi kitob. – Toshkent. “ILM ZIYO” 2013. – B.234

⁴⁰Nurmonov A, Sobirov A, Mahmudov N, Qosimova N, Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-2-3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. Birinchi kitob. – Toshkent. “ILM ZIYO” 2013. – B.6-13

⁴¹Nurmonov A, Sobirov A, Mahmudov N, Qosimova N, Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-2-3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. Ikkinchi kitob. – Toshkent. “ILM ZIYO” 2013. – B.158-169.

⁴²Nurmonov A, Sobirov A, Mahmudov N, Qosimova N, Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-2-3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. Uchinchi kitob. – Toshkent. “ILM ZIYO” 2013. – B.428-441.

⁴³Nurmonov A, Sobirov A, Mahmudov N, Qosimova N, Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-2-3-kitoblar. Akademik litsey va kasb-hunar kollejarining 1-2-3-bosqich talabalari uchun darslik. Uchinchi kitob. – Toshkent. “ILM ZIYO” 2013. – B.580-582.

Bob yuzasidan xulosalar

Ta'lim bosqichlarida o'qitilganlarni takrorlashga oid amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining va fan dasturi darsliklarning tahlili natijalari quyidagi xulosalarni keltirib chiqarish imkonini beradi.

1. Maktabda ona tilini va akademik litseylarda hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish metodikasiga doir amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida yaratilgan metodik adabiyotlarda takrorlashni, yangi mavzuni o'rganish jarayonida oldingi o'rganilganlarni xotiraga tushirish orqali takrorlashni tashkil etish muammosi mahsus lirik tadqiqot darajasida maxsus yoritilmagan bunda, albatta, o'quv yili boshidagi takrorlash darslarini hisobga olmaganda. To'g'ri M.Omilxonovning "Maktabda ona tili o'qitish metodikasi" va "Maktabda soda gap sintaksisni o'qitish" shuningdek, T.Yusupovning "Sintaksisni morfologiyani takrorlash bilan bog'lab o'rganish metodikasi" nomli monografiyalari yaratilgan, ammo ularda asosan, sintaksis va morfologiya bo'limlarigina tadqiqot obyekti qilib olingan.

2. Aksariyat manbalarda va ta'lim muassasasi o'quv jarayoni o'rganish natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, yangi mavzuni o'rganish jarayonida oldingi bo'limlarda o'rganilgan tushunchalarni xotiraga tushirish nazariy ma'lumot tarkibida shu tushunchalarga murojaat etilishiga bog'liq. Masalan, 8-sinf "Ona tili" darsligini o'rganish shuni ko'rsatadiki, sintaktik tushunchalarni anglatish uchun morfologiyaga murojat miqyosi keng emas, bu ishlar zaruriyatga qarab ro'yobga chiqarilgan nazariy ma'lumot tarkibida shuningdek, mashq va topshiriqlarda tilga olingan. Lekin nazariy ma'lumotdagi murojaatning maqsadi boshqa, mashq va topshiriqlarda tahlil munosabati bilan ishlatish maqsadi boshqa.

II BOB.

6-SINFDA ONA TILIDAN TAKRORLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

2.1. 6-sinfda takrorlash darslarini tashkil etish usullari va innovatsion texnologiyalari

Mavjud metodik adabiyotlarda til materiallarini o'rgatishda amal qilinishi lozim bo'lgan yondashuv va tamoyillar haqida so'z yuritilgan. Takrorlash darslarida turli innovatsion texnologiyalardan foydalanishda amal qilinadigan yondashuv va tamoyillarni belgilashda N.Mahmudov, H.Nurmonov, A.G'ulomov, H.Nematov, R.Safarova, T.G'aniyev, Sh.Yusupova, I.Toshev, Sh.Yo'ldosheva, N.Yo'ldosheva, N.M.Dadajonova, X.Qurbonova, T.Ziyodova, M.Mirmahmudova, T.Yusupova, F.H.Aminova va boshqa metodist olimlarning, didaktika bo'yicha esa M.I.Maxmutov⁴⁴. E.G'oziyev⁴⁵larning tadqiqot ishlari monografiyalari, metodik qo'llanmalari, ilmiy maqolalariga tayandik. Shuningdek, xorij metodist olimlaridan Yu.K.Babanskiy, T.I.Shamova, K.D.Ushinskiy, L.P.Federenko larning ishlarini inobatga oldik.

Maktab va akademik litsey til talimi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmog'i darkor kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga tasir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim. Shuningdek, ushbu yondashuvning talabiga ko'ra maktab va akademik litseyning o'quvchilari ona tilini muomala-aralashuv taqazo etadigan, axborot olish ehtiyoji talab qiladigan darajada o'rganishi va egallashi zarur, qolaversa, shu tilning chinakam sohidiga aylanishi

⁴⁴Махмудов М. И Мактабда муаммоли та'лимни ташкил етиш. Т.: 1981.

⁴⁵Гозийев Е Ўқувчиларни умумлаштириш усулларига ўргатиш ва уларнинг аклий тараккийоти. Т.: 1979

darkor. Kommunikativ yondashuvning mazmun-mohiyati rus tili o'qitish metodikasida yetarlicha o'rganilgan. Metodist O. O. Xarchenko o'z maqolasida bugungi ona tili darsliklari kommunikativ yondashuv asosida yaratilayotganini uqtiradi va shunga ko'ra ham talimning nutqiy (kommunikativ) yo'nalganlik tamoyilini ajratish lozimligini ta'kidlaydi. Filologik maqsad bilan nutq o'stirish maqsadi birligini ta'minlash tamoyili kommunikativ yondashuvning amal qilish yo'sinini ifoda etadi. Filologik maqsad – til hodisalarini o'zlashtirish bo'lsa, nutq o'stirish maqsadi – o'rganilgan til hodisalaridan – tilning boy imkoniyatlaridan mumkin qadar to'liqroq foydalanib nutq mahsulini yaratishdir. Ona tili darslarida filologik maqsad bilan nutq o'stirish maqsadini birlashtirish imkonini beruvchi jarayonni yuzaga keltirishda aynan takrorlash darslarining o'rni beqiyos. Demak, O'qitishga kommunikativlik tamoyili asosida yondashuv ona tilidan takrorlash darslarini tashkil qilishda, qolaversa, samaradorlikka erishishda juda katta yordam beradi.

Ta'lim tamoyillari ta'lim tizimi oldiga qo'ygan talablardan kelib chiqadi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish o'qitish tamoyillarini amalda to'g'ri qo'llash bilan bog'liq. Chunochi, ona tili darslarida bir tomondan umum didaktik tamoyillar, ikkinchi tomondan shu fanni o'qitishning o'ziga xos tamoyillarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Umum didaktik tamoyillar garchand ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlarga aloqador bo'lsa-da, ammo u har bir fanning ichki tabiatidan, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar: o'qitishning o'quvchiga ma'lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o'qitishning ilmiyligi va o'quvchi uchun tushunarli; sistemalilik (yoki tizimlilik) va izchillik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi; ongillik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish va ularning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi tamoyillar garchand umumdidaktik tamoyillar sanalsa-da, ammo

ona tili o'qitish nazariyasi va metodikasida ularning har biri o'ziga xos mazmun kasb etadi.

Ma'lumki, ona tilidan tashkil qilinadigan takrorlash darslarida izchillik va ketma-ketlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga amal qilish muhim o'rin tutadi. Ushbu tamoyilga ko'ra til bilimiga oid jihat o'zaro aloqadorlikda, izchil va uzviy taqsimlanmog'i va o'quv yillari mobaynida tadrijiy takomilda o'rganilmog'i kerak. Ma'lumki, izchillik va muntazamlilik uzviylik va uzluksizlik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi. Muntazamlilik va ketma-ketlilik, uzluksizlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish su'rati uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Takrorlash darslarini tashkil etishda o'quvchiga beriladigan topshiriqlar va mashqlar mohiyati oddiydan murakkabga qarab borilishini ta'minlashni taqazo etadi. Chunonchi, izchil va uzluksiz ona tili ta'limi mobaynida yoshlar nutq madaniyatini talab darajasida egallashlari kerak. Shunga doir bilim, ko'nikma va malakalarni muntazamlilik, uzviylik, ketma-ketlilik asosida egallab boradi. Ular bosqichma-bosqich aniq, lo'nda, ta'sirchan fikr bayon qilishni o'rganishadi. Bunday takrorlash darslarini kichik guruhlar bilan ishlash asosida tashkil qilish yaxshi natijalarga olib keladi. Ona tili ta'limini uzluksiz va uzviylik, muntazamlilik va ketma-ketlilik tamoyili asosida tashkil qilishda kichik guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanishni guruhlar orasida o'tkaziladigan musobaqalarda amalga oshirish mumkin. Uzoq o'tilganlarni takrorlash va qayta xotiraga tushirish mashqlarini o'tkazish mazmun-mohiyatiga ko'ra uzluksizlik va uzviylik, izchillik va ketma-ketlilik tamoyiliga asoslanadi. o'rganilayotgan yangi mavzuning mohiyatini o'quvchilarga anglatish ba'zi o'rinlarda uzoq o'tilganlar mavzularning o'quvchilar xotirasiga qanchalik saqlanib qolganiga ham bog'liq. o'tilgan mavzularni yangi o'rganiladigan mavzular bilan bog'lashda tatbiq etiladigan metodlarni va innovatsion texnologiyalarni darsga joriy etishda uzluksiz va uzviylik tamoyiliga

tayaniladi. Shunda mavzulararo bog'liqlik amalga oshiriladi, qolaversa, ta'limning bosqichlararo uzluksizligi va uzviyligi namoyon bo'ladi.

Ona tili darsligini onglilik va ijodiy faollik tamoyili talablariga ko'ra tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, takrorlash darslari jarayonida o'quvchilarning tafakkurini, mantiqiy fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ahamiyati katta, bu ta'lim motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonining samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi bilan bog'liq. O'quvchilarning faollik reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Til ta'limida taqtakrorlash darslarini tashkil etish o'quvchilarning real bilimlarini hisobga olish tamoyiliga asoslani qurilgan dirdagina o'zlashib ketgan Grammatik tushunchalarni o'zlashtirish uchun behuda urinishdek vaqt isrofgarchiligining oldi olinadi. Buni ko'pincha darsning mustah-kamlash bosqichida va takrorlash darslarida amalga oshirish mumkin. Shunda o'qituvchi asosiy maqsadni egallangan ko'nikma va malakalarga qaratadi. O'quvchilardagi real bilimlar ularni muloqotga kirishishga undaydi, bu esa ularda o'z fikrini erkin, to'ri va ravon ifodalashga, og'zaki va yozma nutqining o'sishiga yaqindan yordam beradi.

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Y.A. Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb takidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin"⁴⁶. Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani

⁴⁶ Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб.пед. соч. В 2 том. М. 1982. Т.1. – с. 384.

namoyon etish va jarayon mohiyatini hikoya qilish o'zlashtirish darajasini bir muncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa 25% ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65% gacha ortadi.

Ta'limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili an'anaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili kabi ifoda etiladi. Agarda o'qitish jarayoni ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Shu bois ta'lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ta'limning ishonchliligi va mustahkamligini ta'minlash uchun o'quvchilar o'qish jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtira olishlari zarur: o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab yetish, eslab qolish, o'zlashtirilgan bilimlarini qo'llash bo'yicha ma'lum faoliyatni amalga oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish. Demak, maktabda ona tili va akademik litseyda hozirgi o'zbek adabiy tilidan takrorlash darslarini tashkil etish jarayonida, albatta, unga asos bo'ladigan yondashuv va tamoyillarning ahamiyati katta. Ular darsni to'g'ri tashkil qilishda va samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi, o'qituvchi takrorlash darslarini tashkil etishda o'rinli foydalana olishi katta ro'l o'ynaydi.

O'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirish maqsadida darsning qaysi didaktik siklini tanlash, har bir mavzu doirasidagi mavjud axborotlar hajmi, ularni qayta ishlash, bunda qaysi mexanizmlarni ishga qanday usulda qo'llashdan xabardor bo'lish ta'lim sifatini oshirishni, ta'lim muassasasida iliq va samimiy munosabat o'rnatilishini ta'minlaydi. Pedagog o'z ishiga astoydil, hech bir jihatini, talablari va shartlarin ko'zdan qochirmagan holda yondashib, zimmasidagi vazifani chin dildan bajarsa, bu kutilganidan ham ortiq samara beradi. Bunday intiluvchanlik va g'ayrat, ayniqsa, ona tili ta'limida katta ahamiyat kasb etadi. Maktab ona tili va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tilidan takrorlash darslarini quyidagi innovatsoin texnologiyalardan unumli foydalangan holda tashkil etish mumkin:

- **“Seminar-musobaqa” texnologiyasi.** Bu texnologiyani, ayniqsa, o‘tilganlarni takrorlash darslarida unumli qo‘llash mumkin. Avvaldan tayyorgarlik ko‘rish uchun mavzular o‘quvchilarga taqsimlab beriladi. Birgalikda reja tuzib foydalanishi lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yhati aytib o‘tilaadi. Har bir mavzu muhokama qilinadi va savol javob o‘tkaziladi, javoblar boshqa o‘quvchilar tomonidan to‘ldirilib boriladi. Dars oxirida har bir so‘zga chiqqan o‘quvchi mehnati rag‘batlantiriladi. “Seminar-musobaqa” darslari o‘quvchilarda mustaqil izlanish va ularda javobgarlik hissini tarbiyalaydi. Har bir o‘qituvchi takrorlash darslarini “Seminar-musobaqa” texnologiyasi asosida tashkil qilishda samaradorlikka erishish uchun, dastavval, sinfdagi o‘quvchilarni kichik guruhlarga taqsimlab olishi zarur. Chunki takrorlash darslarini o‘tishda kichik guruhlar bilan ishlash yaxshi samara beradi. Bunda o‘qituvchi quyidagi talablarga amal qilishi joiz:

a) guruhga bitta topshiriq berish lozim;

b) guruhga bitta rag‘bat berilishi kerak;

v) guruh barcha ishtirokchilari hamkorligidagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a‘zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalar yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya‘ni guruh muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;

g) har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a‘zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas‘uliyatligi;

d) hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

e) muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan shaxsiy yutug‘ini takomillashtirishga, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan

holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi⁴⁷. Har bir guruh a‘zosi uchun ham umumiy qoidalar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

- 1) topshiriqni faqatgina birgalikda bajarishigina emas, balki birgalikda o‘qishi va o‘rganishi, berilgan topshiriqqa mas’uliyatli yondashishi;
- 2) musobaqalashishigina emas, balki hamkorliklashishi, hamkorlikda ishlay ham bilishi;
- 3) har doim bir-biriga yordam qilishi, muvaffaqiyat quvonchi yoki muvaffaqiyatsizlik g‘amini birga his qilishga tayyor tura olishi;
- 4) guruhdagi har bir a‘zo o‘z o‘rtoqlarining nutqini xushmuomalalik bilan tinglay olishi⁴⁸.

“Seminar-musobaqa” texnologiyasidan umumta’lim maktablarining ona tili va akademik litseylarning hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘tilganlarni takrorlashda doimiy va boshqa texnologiyalarni omuxta qo‘llash samaradorlikka va ijobiy natijalarga erishishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, 6-sinf “Ona tili” darsligida berilgan 164-dars “Ot – so‘z turkumi” yuzasidan o‘tilganlarni takrorlashga bag‘ishlangan darsni olib ko‘raylik⁴⁹. Bu dars o‘tilganlarni takrorlashga qaratilgan dars bo‘lganligi bois uni “Seminar-musobaqa” texnologiyasi asosida tashkil qilish yaxshi samara beradi. Yanada yaxshiroq natija berishiga erishish uchun “Klaster” va “Aqliy hujum” texnologiyalaridan ham birgalikda foydalanish ham mumkin. Shunda dars ham qiziqarli, ham samarali bo‘lishi kafolatlanadi. So‘z turkumlariga oid o‘tilganlarni takrorlashda “Seminar-musobaqa” darsining bitta bosqichida o‘quvchilarga so‘z turkumlari yuzasidan egallagan bilimlari asosida quyidagi “Klaster”ni to‘ldirib berish talab qilinadi.

⁴⁷Xudoyqulov H.Q. O‘qitishning interfaol texnologiyalaridan foydalanish – kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishning muhim omili. “Kasb-hunar ta’limi”, 2014, 5-son, 15-bet.

⁴⁸Abdullayeva Sh., Kangliyev Sh., Sodiqova A., Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2010.

⁴⁹Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov., Nabiyeva O. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: “tasvir” nashriyot uyi. 2009. – 179 b.

Tayyor boʻlgan “Klaster” ham koʻrsatmali qurol vazifasini ham oʻtaydi. “Klaster” oddiy jadvalga qaraganda nisbatan yangi turdagi koʻrsatmali qurol boʻlib, oʻquvchilar oʻzlari birgalikda ijod qilgan va yaratgan yangiliklarni xotirada uzoq va davomli saqlab qoladilar. Bu esa, oʻz navbatida, kichik guruhlar bilan ishlashga moʻljallangan darsning samarali boʻlishiga olib keladi. Bu haqida H.Boqiyeva “Har bir darsda hamkorlik” maqolasida batafsil toʻxtalib oʻtgan⁵⁰. Muallifning bayon etishiga koʻra, “Klaster” texnologiyasida oʻquvchilar deduktiv metodga xos ravishda yakka tartibda yoki guruhlariga boʻlinib ishlaydilar. Bunda ularga quyidagi umumiy savol beriladi: “Soʻzlarni maʼnolarga koʻra qanday boʻlib oʻrgandik?” Javoblar quyidagi tartibda doskaga yozib boriladi⁵¹.

“Oʻyin” texnologiyasi. Maʼlumki, kadrlash tayyorlash milliy dasturining asosiy talablaridan biri ilgʻor pedagogik texnologiyalarni talim jarayoniga olib kirib, oʻquvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fikrlashga oʻrgatishdir. Chunonchi, maktabda oʻtiladigan barcha fanlar qatori ona tili fanidan oʻtkaziladigan mashgʻulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, ayniqsa, “Oʻyin texnologiyasi”dan foydalanish yaxshi samara berayotganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan,ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchi-yoshlarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda taʼlim jarayoniga turli xildagi ilgʻor pedagogic texnologiyalar (taʼlimiy oʻyinlarni) tatbiq etish lozim. Chunonchi, hozirgi kunda ilgʻor Oʻqituvchilarning ijodiy izlanishlari natijasida bir qancha zamonaviy taʼlim usullari ishlab chiqildi⁵². Bu usullardan samarali foydalanish yoʻllarini kashf eta olish va amalda qoʻllay olishni talab qiladi. Shundagina oʻqitish sifati ham, oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasi ham yuqori boʻladi.

“Oʻyin” texnologiyasidan ham takrorlash darslariga, shuningdek uyga vazifani soʻrash va mustahkamlash bosqichlariga tatbiq etilsa maqsadga muvofiq.chunki umumtaʼlim maktablarining 5-, 6-sinflarida bu texnologiyaning qoʻllanilishi nisbatan ona tili taʼlimining boshqa bosqichlariga qaraganda samaradorlikka

⁵⁰Boqiyeva H. har darsda hamkorlik // Boshlangʻich taʼlim. – 2008. 2-son. – B. 28-29.

⁵¹Biz H.Boqiyeva tavsiya etgan namunani soʻz turkumlarini takrorlashga moslashtirib oʻzgartirib berdik.

⁵²Umumiy oʻrta talimning davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. – Toshkent: Sharq, 1999. 1-maxsus son.

erishishga qulay va oson. O'quvchilarning yoshi, fiziologik holati, psixologiyasini o'rganish va tahlil qilish natijalari hamda o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradi. Demak, bu texnologiyaning tatbiqi o'quvchilarning darsga va mavzuni yaxshiroq o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning faol harakat qilishlari uchun zamin yaratadi va darsning samarali bo'lishiga imkon beradi.

Biz bu o'rinda darslikdagi mashq va topshiriqlarni bajartirish jarayoniga kichik guruhlar bilan ishlash metodini tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib berishga va didaktik o'yinlar asosida tashkil etiladigan dars mazmunini ochib berishga harakat qilmoqchimiz. Buni 6-sinfda o'tiladigan "Leksikologiya va lug'atshunoslik" mavzusi misolida yoritishni ma'qul topdik.⁵³ O'tgan darsda uyga berilgan vazifalar so'rab, mustahkamlangach, yangi mavzuni to'g'ridan-to'g'ri ijodiy ish bilan boshlaydi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga (har bir partaga) oq qog'oz tarqatib chiqadi va unga shirin, baland, katta, so'zlarini aytib quyidagi topshiriqni aytadi. Ular bu so'zlarning zid ma'nolari haqida bilganlarini yozishlari kerak. Bunda ular shu so'zlar ishtirokida so'z birikmalarini yozishadi, hatto qobiliyatli o'qituvchilar bu so'zlarning ma'nolari anglashilgan rasmlarni ham taqdim etadilar va ma'nolarini izohlashadi. Shu yo'l orqali darsning yangi mavzusiga qadam qo'yiladi. Yangi mavzuga kirish bosqichi amalga oshirilgach, 2-topshiriqqa o'tadi. Unda o'qituvchi asosiy e'tiborni ko'chma doskadagi quyidagi iboralarga qaratadi. Ko'chma doskada quyidagi iboralar yozilgan bo'ladi: tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, boshi osmonga yetmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq. O'quvchilar bu iboralarning qaysi ma'noda kelganligini aytadilar. Ikkala topshiriqni bajarib bo'lgandan so'ng, o'quvchilarning javoblarini umumlashtiradi va umumlashgan fikrlardan kelib chiqqan holda shu hodisani nazariy jihatdan qoidalashtiradi va quyidagi qoidani keltirib chiqaradi: - Demak, o'quvchilar so'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi o'z ma'nosi sanaladi. Bu topshiriq bajarilgandan so'ng

⁵³N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. Toshkent: "Ma'naviyat", 2004. 172-bet.

o‘quvchilar iboralar mavzusi yuzasidan qanchalik bilimga ega ekanliklari yaqqol namoyon bo‘ladi. Iboralar ma’nosini izohlash kichik sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli topshiriq bo‘lib tuyuladi.

“Qo‘sh daraxt” o‘yini: bu o‘yin darslikdagi leksikologiya va lug‘atshunoslik mavzusi asosida⁵⁴ tashkil etiladi. Mayda oq qog‘oz parchalariga yozilgan so‘zlardan bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar ajratib olinadi qo‘llanilganlarini birinchi daraxtga, bir ma’noli so‘zlar, ikkinchi daraxtga ko‘p ma’noli so‘zlarni ilib qo‘yishlari kerak. Bunda sinfdagi o‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, musobaqa uyushtiradilar. Har bir o‘quvchidan o‘zi ilib qo‘ygan qog‘oz parchasidagi so‘zlarni yodda saqlab qolish talab etiladi. To‘g‘ri va tez bajargan guruh rag‘batlantiriladi.

1. “Uch so‘z” o‘yini: bu o‘yinda sinfdagi uchta qator uchta jamoa sifatida ishtirok etadi. Bu o‘yin darslikdagi ot so‘z turkumi bo‘yicha mustahkamlash mavzusi asosida⁵⁵ tashkil etiladi. Shu mashqdagi **gul, bog‘, bo‘ston** so‘zlari doskaga yozib qo‘yiladi. Har bir guruh vakillari chiqib doskadan o‘zlari uchun ajratilgan joyga shu so‘zlar ishtirok etgan maqollardan yozishi kerak. Kam vaqt ichida qancha ko‘p topgan o‘quvchi topshiriq g‘olibi sanaladi. Qolganlar esa mustaqil ravishda daftarlariga bilganicha maqollardan yozishi shart. Ular ham yuqorida qo‘yilgan shartga amal qilishlari lozim. Bunday o‘yinlardan darsda unumli foydalanish mumkin, bunda, albatta, darsga ajratilgan vaqtni to‘g‘ri taqsimlash lozim. Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining va akademik litseylarining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari har bir darsda pedagogik texnologiyalardan, jumladan, ta’limiy o‘yin texnologiyalaridan foydalanib dars o‘tish lozim. Zero, ona tili darslarida bilim olishni osonlashtiruvchi, qiziqtiruvchi ta’lim usullaridan foydalanish ta’lim jarayonining yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

⁵⁴H.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva, Ona tili, 6-sinf uchun darslik. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2004. 172-bet.

⁵⁵Yuqorida nomi tilga olingan darslik.172-bet.

2.2. Takrorlash darslarida qo‘llaniladigan mashq va topshiriqlarning turlari

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili va akademik litsey hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarini kichik guruhlar bilan metodi asosida tashkil etishda topshiriq va mashqlar tizimini ishlab chiqish va undan samarali foydalanish muammolari bir qator metodist olimlar T.G‘aniyev⁵⁶, A.Bobomurodova⁵⁷, M.Saidov⁵⁸, tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy ishlarida rekonstruktiv, reproduktiv hamda ijodiy mashqlar haqida ma’lumot berishgan, tasnif qilishda. Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta’lim tizimi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish masalasi, birinchi navbatda, o‘quvchiga bajartiriladigan mashq va topshiriqlar mazmuni bilan belgilansa, ikkinchidan esa, shu jarayonni tashkil qilish bilan ham bog‘liq. Ta’lim samaradorligini oshirish, hamkorlikda ishlash texnologiyalari, darsni kichik guruhlar asosida tashkil etish masalalarini to‘liq hal etishda mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni lozim topdik.

Biz ilmiy adabiyotlarni o‘rganib va tahlil qilib chiqib, maktabda ona tili va akademik litseylarda hozirgi o‘zbek adabiy tili fanidan takrorlash darslarini tashkil etishda foydalaniladigan mashq va topshiriqlarning turlarini shartli ravishda uch guruhga ajratdik.

1. Xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlar
2. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlar;
3. Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar.

Bunday tasniflashdan asosiy maqsad – maktab va akademik litseyda tashkil qilinadigan takrorlash darslariga shuningdek yangi mavzuni o‘rganish jarayonida oldingi o‘rganilganlarni xotiraga tushirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqarishdan iboratdir.

⁵⁶G‘aniyev T.T. Aktivizatsiya poznavatelnoy deyatelnosti uchashixsiya v protsesse vypolneniya uprajneniy po rodnomu (o‘zbekskomu) yazyku. Avt-t diss ... kand. Ped.nauk. – Tashkent. 1991. 23 str.

⁵⁷Bobomurodova A.Ya. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topishmoqlardan foydalanish. Ped.fan.nomzodi ... yozilgan diss. – Toshkent, 1996. – 146. b.

Qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlar. Qayta xarakteridagi mashq va topshiriqlar o'quvchiga muayyan qiyinchilik tug'dirmaydi, uni bajarishda tayyor o'quv materialini sifatida ish ko'radi. O'rganilgan til hodisalarini xotirada tiklash, topshiriqni to'lig'icha muayyan andaza yoki namunaga qarab bajarish kabilar shunday mashq va topshiriqlar sirasiga kiradi.

Maktabda o'qitiladigan ona tili va akademik litseylarda o'qitiladigan hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida bajariladigan bir qator ish turlari (mashq va topshiriqlar), jumladan, ko'chirib yozish, izohli yozuv, saylanma diktant, muayyan andazaga qarab bajariladigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik tahlillar, berilgan she'riy matn mazmunini nasriy yo'l bilan bayon qilish kabi topshiriqlar o'quvchilardan bilimlarni xotirada tiklashni talab qiladi.

Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlar. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashqlar tarkibini ko'proq qayta xotirlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar egallaydi. Chunki o'quvchi ona tilidan egallangan bilimlarga tayanmay turib, uni yangi sharoitda qo'llay olmaydi. Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlar sirasiga quyidagi mustaqil ish turlarini: a) nuqtalar o'rniga zarur harflar, kelishik qo'shimchalari, so'zlarni topib qo'yish; b) ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi, qarama-qarshi ma'noli so'z bilan almashtirishib; d) berilgan tayanch so'zlar yoki so'z birikmalaridan foydalanib, gaplar matnlar tuzish kabilarni kiritish mumkin. Bu kabi mashq va topshiriqlar o'quvchidan qisman izlanuvchanlikni talab qiladi. Chunki bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi ma'lum darajada yordam oladi. Berilgan so'zlar, so'z birikmalari va gaplar o'quvchiga mashq va topshiriqni bajarishi uchun ko'maklashadi.

Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar. Izlanish til materiallarini ijodiy faoliyat bilan o'rganish demakdir. Shubhasiz, o'quvchi maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida ma'lum bir yangilik kashf etmaydi, balki berilgan ma'lumot mazmunini ijodiy yo'l bilan o'rganadi. Bunday ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar o'quvchilardan oldin o'rganilganlarni tamoman yangi sharoitda qo'llashni talab qiladi. Maktab ona tili va akademik

litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida yoziladigan insholar, o'qilgan abadiy asrga taqriz yozish, maqola yozish, ilmiy ma'ruzalar tayyorlash o'quvchilardan hech qanday andoza yoki tashqi yordam olmasdan bajariladigan asosiy ishlar sanaladi. Demak, maktab ona tili va akademik litsey hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida izlanishga asoslangan ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlardan foydalanish, birinchida, o'quvchilarning tili hodisalariga qiziqishini oshiradi, ikkinchidan, til hodisalarini mustaqil tahlil qilishga o'rgatish orqali ularda ijodiylik rivojlanib boradi.

O'qituvchi mashq va topshiriqlarni tayyorlashda uning o'rganilayotgan til materiali mazmuniga muvofiq kelishi, mavzunung murakkablik darajasi, o'rganilayotgan o'quv materiali yuzasidan o'quvchilada tushunchalarning mavjudligi, o'quv materialining hajmi kabilarni to'liq inobatga olishi lozim, chunki mashq va topshiriqlarning turlari va ularning mazmun-mohiyati shuni talab qiladi. Masalan, qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlarni tanlash va uni ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchining oldin o'tilganlar yuzasidan ayrim tushuncha va ma'lumotlarga ega bo'lishini talab qiladi. Andoza yoki namunaga qarab bajarilish talab qilinadigan qayta xotirlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar uyga berilgan vazifani so'rash jarayonida qo'llanilgani maqsadga muvofiq. Bu jarayonda qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanish o'quvchining o'tgan darsdagi o'rganganlarini xotiraga tushirishiga va o'qituvchi ham ularni baholay olishiga imkon beradi. Yangi mavzuni mustahkamlashda esa qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanilsa, ham o'qitgan yangi mavzu o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanadi, ham o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Bu esa uchinchi turdagi mashq va topshiriqlarning dars jarayoniga tatbiq etilishiga zamin yaratadi.

Endi yuqorida tasnif qilingan mashq va topshiriqlarning har bir turiga amaliy nuqtayi nazardan yondashamiz va ona tili mavzulari hamda ta'lim bosqichlari bo'yicha misollar keltiramiz:

Qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanish bo'yicha tafsiyalar:

Qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanish jarayoni aynan takrorlash darslari yoki yangi mavzuni o'rganish jarayonida oldin o'rganilganlarni xotiraga tushirish uchun foydalanishiga ko'ra ichki farqqa ega. Takrorlash darslarida qo'llaniladigan qayta xotirlash xarakteridagi mashqlarning mazmun-mohiyati va qo'llanish talabi faqat o'tilganlarni xotiraga tushirish va o'rganilgan mavzular yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi. Yangi mavzuni o'rganish jarayonida o'tilganlarni xotiraga tushirish esa yangi mavzuni o'zlashtirishda ko'prik vazifasini o'taydi. Qayta xotirlash xarakteridagi mashq va topshiriqlarga misol sifatida darslikda berilgan mashq va topshiriqlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, 6-sinf darsligi⁵⁹ dan misol tariqasida 11-betda berilgan 8-dars (Eskirgan va yangi so'zlar. Atamalar. Shevaga xos so'zlar. Iboralar. Lug'atshunoslik) dagi 33-va34-mashqlarni shartiga binoan o'quvchilar eskirgan va yangi so'zlarga oid o'tilganlarni xotiraga tushiradilar va takrorlaydilar. 33-mashq shartiga ko'ra o'quvchilar matnda berilgan eskirgan so'zlarni topishi va izohlashi lozim. Bunda har bir kichik guruhdan bittadan o'quvchi doskaga chaqiriladi va matndan 1(bir) minut vaqt ichida mashq matnida berilgan eskirgan so'zlarni topib yozishi kerak. Qancha ko'p so'zni topgan o'quvchi g'olib sanaladi. Bu birinchi bosqich sanaladi. Ikkinchi bosqichda boshqa o'quvchi chaqirilib, undan shu so'zlarga izoh yozish vazifa qilib beriladi. Har bir so'zga izoh berilgandan so'ng shu so'zlarning hozirgi kunda unga teng keladigan tushunchalarni aytish va zamonaviy atamasini keltirish talab qilinadi. Matndagi fikrshunoslar, muhandislar, muarrixlar, faylasuflar, shuaro va musiqashunoslar, tabiblar termin-tushunchalariga izoh berilgandan so'ng ulardan hozirgi kunda shu atamalar anglatgan ma'noga teng keluvchi termin-tushunchalarni aytib berishni so'rash orqali bu so'zlarning ma'nolari to'liq ochib beriladi va uning mantiqiy davomi sifatida 34-mashqqa o'tiladi. Bu mashqda yangi so'zlar haqida gap boradi.

⁵⁹Mahmudov N., Nurmonov. A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik.2-nashri. Toshkent. "Tasvir" nashriyot uyi. 2009.

Unda o'quvchilar tadbirkor, ishbilarmonlik, fermer, internet kabi so'zlarga izoh berishadi va ularning paydo bo'lish sabablarini tushuntirishadi. Taxminan o'quvchilar hozirgi kunda prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning, fermer xo'jaligining yaxshi yo'lga qo'yilayotganligiga va internetning jadal rivojlanayotganligiga o'z munosabatini bildirishadi. Uning paydo bo'lish sabablarini mamlakat taraqqiyoti bilan bog'lab izohlashga xarakat qilishadi. Bu esa mazkur fanni va mavzuni ijtimoiy va siyosiy hayot bilan bog'lash imkonini beradi. Natijada ona tili va ijtimoiy-siyosiy hayot integratsiyasi vujudga keladi. Demak, o'qituvchi o'z darsida fanlararo integratsiyani qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Hayotiy voqealar o'quvchida ham qiziqish va o'z munosabatini bildirish hissini paydo qiladi. Bu esa o'quvchida ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim..., deya ta'kidlaydi⁶⁰.

Qayta xotirlash xarakteridagi bu kabi ishlarni akademik litseyning hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida ham o'rta umumta'lim maktablari ona tili darslaridagi uzoq o'tilganlarni xotirlash tarzida davom ettirish mumkin. Mas: "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (akademik litsey II bosqich) darsligining (4-dars. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Ko'chma ma'noli va ularning turlari) 191-betida berilgan 1- va 2-topshiriqlarini bajartirish jarayonida ham quyidagicha davom ettirish mumkin: Guruhdagi o'quvchilar 4ta guruhga bo'linadi. Guruhlardan ikkitasi asal va xom so'zlarining to'g'ri ma'nolari ustida ish olib boradi. Bunda o'quvchilar izohli lug'atlar bilan ishlaydi. Izohli lug'at bilan ta'minlashning iloji bo'lmaganda o'qituvchi shu so'zlar aks etgan qismining nusxasi bilan guruhni ta'minlashi juda zarur.

⁶⁰Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.

Qisman izlanuvchanlik xarakteridagi mashq va topshiriqlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar:

Bu turdagi mashq va topshiriqlarni ham, dastavval, darslik asosida tashkil qilish lozim. Chunki o'qituvchi o'quvchilarni doskada ishlashga o'rgatmog'i, qolaversa, darslik va qo'shimcha manbalar bilan ishlash malakalarini shakllantirib bormog'i ustuvor masala sanaladi. Darsliklarni tahlil qilish natijasida shunga amin bo'ldikki, maktab "Ona tili" va akademik litsey "Hozirgi O'zbek adabiy tili" darsliklarida ham qisman izlanuvchanlikka asoslangan mashq va topshiriqlarning tashkil qilishga imkoniyat mavjud. Masalan, o'rta umumtalim maktablari "Ona tili" darsliklarining barchasida o'tilganlarni takrorlashga doir darslar bor bo'lib, ularda uzoq o'tilganlarni takrorlashga va mustahkamlashga doir darslar "Savol va topshiriqlar" bir qator savollar berilgan. 6-sinf "Ona tili" darsligining 9-betida berilgan 6-dars leksikologiya va lug'atshunoslik bo'yicha o'tilganlarni takrorlashga oid bilimlarni o'z ichiga oladi. Mavzu tagida berilgan savol va topshiriqlarga etiborni qarataylik: unda birinchi topshiriq "meva, daryo, oy" so'zlarini turli ma'noga qo'llab gap tuzing deb talab qilinadi. O'quvchilar uzoq o'tilganlarni xotiraga tushirish bilan bir qatorda shu so'zlarni avval o'z ma'nosiga, so'ngra ko'chma ma'noda qo'llab gap tuzadilar. Dastavval, turli ma'no nima ekanligi ustida bosh qotirishning o'ziyoq o'quvchini oldin o'rganganlari asosida qisman izlanuvchanlikka undayi. O'rgangan bilimlari asosida avval "meva, daryo, oy" so'zlari ishtirokida o'z ma'nosida qo'llab, taxminan quyidagicha gaplarni tuzishi mumkin: 1. Bog'da har xil mevalar g'arq pishgan. 2. Darsdan so'ng daryo bo'yiga bordim. 3. Kecha osmonda to'lin oy ko'rindi. Bu gaplarni o'qitib ularda shu so'zlarning ma'nosini aytib berish talab qilinadi va bundan so'ng ularni 3ta ustunga bo'li, har bir ustundagi o'z ma'nosida berilgan gaplarning tagiga ularni ko'chma ma'noda qo'llab tuzilgan gaplar yoziladi.

So'zlar ma'nisida qo'llangan	o'z	1. Bog'da har xil mevalar g'arq pishgan.	1. Darsdan so'ng daryo bo'yiga bordim.	1. Kecha osmonda to'lin oy ko'rindi.
------------------------------------	-----	--	--	---

Soʻzlar koʻchma maʼnoda qoʻllangan	1.Mevasini yeginu bogʻini surishtirma 2.Qanday urugʻ qadasang, shunday meva olasan.	1.Koʻz yoshlarim daryo boʻlib oqdi. 2.Yurgan daryo, Oʻtirgan boʻyra	1.Koʻrdim, oydekkina qiz ekan. 2.Oy borib omon kelgin.
------------------------------------	--	--	---

Navbatdagi topshiriq koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlar ishtirok etsin gaplarni tahlil qilish va maʼnolarini izohlashdir. Har bir gapdagi soʻzlarning maʼnolarini izohlash uchun oʻquvchi izohli lugʻatga murojat qiladi va undan shu soʻzlarning gapda anglatgan koʻchma maʼnolarini topishadi. Shundan soʻng oʻz va koʻchma maʼnolar orasidagi oʻzaro uzviylik va aloqadorlikni aniqlashadi. Demak, darslikda berilgan topshiriq va mashqlarga nisbatan bunday yondashuv oʻquvchidan qisman boʻlsada izlanishni talab qiladi.

Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlardan foydalanish boʻyicha tavsiyalar: Ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlarni ham oʻqituchi taʼlim bosqichlari darsligida berilgan oʻquv materiallari asosida tashkil qilinishi mumkin. Masalan 6-sinfda oʻrganiladigan darslarni oʻqitish jarayonida bunga juda koʻp imkoniyatlar mavjud. 6-sinf “Ona tili” darsligi⁶¹ni olib koʻraylik. Maʼlumki, 6-sinfda asosan soʻz turkumlari oʻqitiladi. Darslikning “Kirish” qismida takrorlashga oid mavzular berilgan boʻlib, unda fonetika boʻyicha oʻtilganlar takrorlanadi, yaʼni qayta xotiraga tushiriladi. Soʻz turkumlari boʻyicha takrorlash darsini tashkil qilishda oʻquvchilar 6 guruhga ajratilib darsni kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilish va oʻtkazish mumkin. Bunda oʻquvchilar har bir turkumga oid soʻzlardan jadvalga joylashtirishlari lozim. 1-guruh ot - soʻz turkumiga oid soʻzlarni, 2-guruh feʼl - soʻz turkumiga oid soʻzlarni, 3-guruh sifat - turkumiga oid soʻzlarni, 4-guruh son - turkumiga oid soʻzlarni, 5-guruh ravish - turkumiga oid soʻzlarni, 6-guruh esa olmosh - turkumiga oid soʻzlarni, jadval katakchalariga joylashtiradilar:

⁶¹ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshken. “Tasvir” nashriyot uyi. 2017 132b.

Ot	Fe'l	Sifat	Son	Ravish	Olmosh
.....

Demak, darsni uzoq o‘tilganlarni qayta xotiraga tushirish bilan boshlash kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil etildi. Buning davomiyligini saqlab qolish maqsadida keying ishlarni ham ana shu metodga asoslangan holda davom ettirish kerak. Bundan tashqari boshqa mashq misolida ham buni ko‘rishimiz mumkin. Bu mashq shartiga ko‘ra, “Topqirlar bellashuvi” o‘tkaziladi. “Topqirlar bellashuvi”da o‘quvchilar mustaqil so‘z turkumlariga oid misollar topishlari lozim. Xullas, oldingi taqsimlangan guruh a‘zolariga bir bet oq qog‘oz beriladi va ular shu oq qog‘ozga mustaqil so‘z turkumlariga misollarni yozadilar. Vazifani bajarish uchun bor-yo‘g‘i 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Bellashuvni davom ettirish maqsadida topshiriqni topilgan har bir so‘zga gap yozish vasifasini berib, ularning mustaqil ravishda gap tuza olish malakalarini sinab ko‘rish mumkin. Bu vasifani bajarishga topilgan so‘zlarning miqdoriga qarab vaqt ajratish joiz. Boshqa mashq esa 2 ta topshiriqdan iborat bo‘lib birinchi topshiriqqa ko‘ra ular “Sharafli burch” rivoyatini o‘qish, mazmunini so‘zlab berish va “insonlik sha‘niga isnod”, “tiriklikdagi o‘liklik” iboralarning ma‘nosini sharhlashlari zarur. Ikkinchi topshiriqqa ko‘ra esa matndagi mustaqil so‘zlarni turkumlarga ajratadilar va ularning o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda ko‘chirib yozadilar. 10-mashqni bajarish uchun o‘quvchilarning odob-axloq haqidagi tushunchalari va ularni boshqalarga tushuntira olish layoqatlari namoyon bo‘ladi. Shu darsga aloqador oxirgi ya‘ni yakunlovchi vazifa ham berilgan “**Takrorlash uchun savollar**”dir. Buni bajartirish uchun “**Lift**” texnologiyasidan foydalansa bo‘ladi. 6 ta yo‘lagi bor 9 ta qavatdan iborat uyning 9-qavatiga chiqish uchun o‘quvchilar “**Takrorlash uchun savollar**” ruknida berilgan 9 ta savolga javob berishlari talab qilinadi:

- 1. Ot, sifat, son, olmosh, fe‘l va ravish nima uchun mustaqil so‘z turkumi deyiladi?**
- 2. Olmosh qanday xususiyatlari bilan boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi?**

- 3. Ot soʻzlar gapda qanday sintaktik vazifalarda keladi?**
- 4. Sifat va son soʻzlarqaysi gap boʻlaklar vazifasida kelishi mumkin?
Misollar keltiring.**
- 5. Ravishlar gapda koʻpincha qaysi gap boʻlaklariga bogʻlanib keladi?**
- 6. Feʼl soʻzlarining gapdagi asosiy vazifasi nimadan iborat?**
- 7. Mustaqil soʻz turkumlarini oʻrganish nega feʼl turkumidan boshlanadi?**
- 8. Gapda ot soʻzlarga bogʻlanib keluvchi va ot oʻrnida qoʻllanuvchi soʻz turkumlari qaysilar?**
- 9. Otlashuv hodisasiga misollar keltira olasizmi?**

Xullas, bu savollarga javob topgan kichik guruhlar yuqoriga qarab koʻtariladi va marraga yetadi. Oxirgi savolgacha birinchi va toʻgʻri javob bergan guruh gʻolib sanaladi. Koʻrinib turganidek, samaradorlikka erishish uchun texnologiyalarni toʻgʻri tanlash va uni darslikda berilgan nazariy malumotlar hamda amaliy mash va topshiriqlar bilan uygʻunlashtira olish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab va akademik litsey ona tili taʼlimida qoʻllaniladigan qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlarning mazmuni va mohiyati, tatbiq etish yoʻl yoʻriqlari kichik guruhlar bilan ishlash metodiga moslashtirilsa, albatta, samaradorlikka erishish imkoniga ega boʻlish mumkin. Bajariladigan har bir mashq va topshiriq kichik guruhlarining aʼzolari tomonidan hamkorlikda amalga oshirilsa, oʻz oʻzidan darsda oʻquvchilar faolligi yuzaga keladi va bu darsning yanada samarador boʻlishini taminlaydi.

Bob yuzasidan xulosalar

Xullas, maktab va akademik litsey til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuv xususiyatlarini o'zida aks ettirmog'i darkor. Kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berish, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga tasir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim. Shuningdek, ushbu yondashuvning talabiga ko'ra maktab va akademik litseyning o'quvchilari ona tilini muomalaralashuv taqazzo etadigan, axborot olish ehtiyoji talab qiladigan darajada o'rganishi va egallashi zarur, qolaversa, shu tilning chinakam sohibiga aylanishi darkor.

Filologik maqsad – til hodisalarini o'zlashtirish bo'lsa, nutq o'stirish maqsadi – o'rganilgan til hodisalaridan – tilning boy imkoniyatlaridan mumkin qadar to'liqroq foydalanib nutq mahsulini yaratishdir. Ona tili darslarida filologik maqsad bilan nutq o'stirish maqsadini birlashtirish imkonini beruvchi jarayonni yuzaga keltirishda aynan takrorlash darslarining o'rni beqiyos. Demak, o'qitishga kommunikativlik tamoyili asosida yondashuv ona tilidan takrorlash darslarini tashkil qilishda, qolaversa, darsda samaradorlikka erishishda juda katta yordam beradi. Ta'lim tamoyillari ta'lim tizimi oldiga qo'ygan talablardan kelib chiqadi, shxsn har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish o'qitish tamoyillarini amalda to'g'ri qo'llash bilan bog'liq. Chunonchi, ona tili darslarida bir tomondan umumdidaktik tamoyillar, ikkinchi tomondan shu fanni o'qitishning o'ziga xos tamoyillarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Umumdidaktik tamoyillar garchand ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlarga aloqador bo'lsa-da, ammo u har bir fanning ichki tabiyatidan, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi ta'lim muassasalarida o'qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar o'qitishning o'quvchiga ma'lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o'qitishning ilmiyligi va o'quvchi uchun tushunarlilik; sistemalilik va izchillik; nazariya bilan amaliyotni uzviy aloqasi;

onglilik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish va ularning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi tamoyillar garchand umumdidaktik tamoyillar sanalsa-da, ammo ona tili o'qitish nazariyasi va metodikasida ularning har biri o'ziga xos mazmun kasb etadi.

O'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirish maqsadida darsning qaysi didaktik siklini tanlash, har bir mavzu doirasidagi mavjud axborotlar hajmi, ularni qayta ishlash, bunda qaysi mexanizmlarni ishga qanday usulda qo'llashdan xabardor bo'lish ta'lim sifatini oshirishni, ta'lim muassasasida iliq va samimiy munosabat o'rnatilishini ta'minlaydi. Pedagog o'z ishiga astoydil, hech bir jihatini, talablari va shartlarini ko'zdan qochirmagan holda yondashib, zimmasidagi vazifani chin dildan bajarsa, bu kutilganidan ham ortiq samara beradi. Bunday intiluvchanlik va g'ayrat, ayniqsa, ona tili ta'limida katta ahamiyat kasb etadi. Maktab ona tili va akademik litseylarning hozirgi o'zbek adabiy tilidan takrorlash darslarini quyidagi innovatsion texnologiyalardan hamda mashq va topshiriqlar tizimidan unumli foydalangan holda tashkil etish mumkin: 1. "Seminar-musobaqa", "Aqliy hujum", "o'yin", "Lift", "Labirint" kabi texnologiyalar: 2. "Xotirlash, qisman-izlanuvchanlik va ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar".

III BOB.

TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI

3.1. Takrorlash darslari bo'yicha tajriba-sinov materiallarining tasnifi

Bu dars 6-sinf ona tili darslariga tatbiq etilgan. Ma'lumki, 6-sinf darsligida mustahkamlash termini ostida takrorlash darslari berilgan. Ushbu dars turkumi bo'yicha o'tilganlarni mustahkamlash yuzasidan tashkil etilgan. Bu takrorlash darsida esa o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirish mavzu haqida yanada chuqurroq bilim berish, ot so'z turkumi yuzasidan bilimlarini mustahkamlash ko'zda tutiladi. O'qituvchi dars davomida bilimlarini mustahkamlashda kichik guruhlarda (hamkorlikda) ishlash metodidan foydalanadi va darsning samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida "Aqliy hujum" texnologiyasini tatbiq etadi.

O'qituvchi darsni o'quvchilardan uyga vazifani so'rash bilan boshlaydi. Uyga vazifa: "Bolaligim – poshsholigim" mavzusida matn tuzish va unda erkalash va kichraytirish otlaridan foydalanish. O'quvchilar baholangandan so'ng yangi mavzu e'lon qilinadi. Yangi mavzu: ot so'z turkumi bo'yich mustahkamlash. Ushbu mavzuni o'rgatishga noan'anaviy yondashgan holda, dastlab, sinfdagi O'quvchilarni kichik guruhlariga: "**Aristokrat**", "**Intellekt**" va "**Everest**" kabi guruhlariga bo'lib olinadi va musobaqa o'tkaziladi.

Yangi mavzuni o'rganish "**Blumlar oroliga sayohat**" o'yini bilan boshlanadi. o'qituvchi orol manzarasi ya'ni 3 ta kema, daraxtlar, qirg'oq va dengiz tasviri tushirilgan plakatni doskaga ilib qo'yadi. 3 guruhga bo'lingan o'quvchilar O'z kemalarida bilimlar oroliga sayohatga chiqadilar oroldagi "**Savol-javob**", "**Davom ettir**" bekatlarida to'xtab undagi shartlarni bajarish lozim. Birinchi bekat: "**Savol javob**" deb nomlanadi. O'quvchilardan berilgan savollarga guruh bilan kelishgan holda javob beradilar:

1. Qo'shma otlar imlosiga misollar keltiring.
2. Juft otlarga misollar keltiring.
3. Atoqli otlar imlosiga misollar keltiring.

To'g'ri javob bergan guruh ikkinchi bekatga yo'l oladi. Bunda o'quvchilar bosh qismi berilgan maqollarning, qolgan qismini mustaqil topishadi.

Maqollar:

1. Avval o'yla, (keyin so'yla)
2. Baxlning bog'i ... (ko'karmas)
3. Dangasaning ishi bitmas (yoz kelsa ham qishi bitmas)
4. Do'sting ming bo'lsa ham oz (dushmaning bir bo'lsa ham ko'p)
5. Do'stsiz boshim - (tuzsiz oshim)
6. Ota-ona (oltin qanot)
7. Yaxshilik qilsang yashir, (yaxshilik ko'rsang oshir)
8. Yaxshi niyat - (yarim mol)
9. Yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z - (bosh qozig'i)

Bekatlardagi shartlarni a'lo darajada bajargan guruh g'olib deb e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi. Bundan tashqari **"Ilmga parvoz"** o'yinidan ham foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi havo sharining maketini yasab, sinfga olib kiradi. Unda to'rt tomon mavjud. Birinchi tomonda kirish eshigi bor bo'lib, qolgan uch tomoniga konvertlarga joylashtirilgan uchta shartning nomi yoziladi. Shartlarda test savollari berilgan bo'lib, har bir guruh quyidagi bekatlarda uchtdan shartni bajarishlari kerak: **1-bekat: "o'zingni sinab ko'r"; 2-bekat: "Bosh qotir"; 3-bekat: "Kamalak jilosi". "O'zingni sinab ko'r"** bekatida quyidagi test savollari beriladi.

1-savol

Atoqli otlar berilgan qatorni toping.

- A) "Bahor" konsert zali, "Lazzat" oshxonasi,
- B) Ibn Sino, Cho'lpon
- C) Qoraqamish, Yaksart

2-savol

Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni toping.

- A) -chi, -soz, -kor
- B) -zor, -kor, -goh

C) -gich, -ma, -don

3-savol

Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar berilgan qatorni toping.

A) -lik, -chilik, -garchilik

B) -lik, -ch, -inch

C) -goh, -iston, -zor

2-bekatda o‘quchilarga mavhum, faoliyat-jarayon, o‘rin-joy nomlari ishtirokida ta‘sirchan va mazmundor gaplar tuzish topshiriq qilib beriladi. Masalan, tinchlik, yaxshilik: yaxshilik qilgan insonning joyi jannatda bo‘lar emish. **“Kamalak jilosi”** deb nomlanuvchi bekatda esa o‘quvchilarga oldingi bekatda tuzgan gaplari asosida kichik matn yoki hikoya tuzish topshiriladi. Qaysi guruh barcha shartlarni bosqichma-bosqich a‘lo darajada bajarsa, o‘sha guruh g‘olib sanaladi. Dars yanada qiziqarli, o‘quvchilar faolligi yuqori bo‘lishi uchun mavzu doirasidagi turli metod va texnologiyalardan foydalanish mumkin. Ularga quyidagi topshiriq beriladi, turdosh otlarni jadvalga to‘g‘ri joylashtirishlari kerak.

Jarlik, bog‘bon, soylik, buloq, saylov, soat, dorboz, somsapaz, daryo, irmoq, darvozabon, uzumchilik, dehqonchilik, ruchka, gulchi, tintuv, yomonlik, qir, tikuvchi, paxtachilik, tepalik, yoshlik, mahalla, suvchi, jilg‘a, gulzor, tinchli.

Shaxs otlari	Narsa otlari	O‘rin joy otlari	Faoliyat jarayon otlari

Navbatdagi topshiriqda bajariladigan ish o‘quvchilarning otning tuzilishiga ko‘ra turlari yuzasidan egallagan bilim va ko‘nikmalari sinab ko‘riladi.

Kungaboqar, qo‘lqop, qo‘ziqorin, achchiqtosh, non-pon, oy, ota-ona, belkurak, belbog, qo‘ni-qo‘shni, daraxt, yosh-qari, osmon, ko‘z-po‘z, tesha, Kichik Osiyo, asalari, to‘rtburchak, gulhamishabahor, ko‘klam, boychechak, tuz-puz, beshiktevratar.

Sodda otlar	Qo'shma otlar	Juft otlar	Takroriy otlar

Ushbu otlarni qatnashtirib har bir guruh a'zosi gap tuzadi, qaysi guruh topshiriqni birinchi bajarsa, o'sha guruh ushbu shartda g'olib sanaladi.

1. Har birimiz o'z ota-onamizni asrab avaylamog'imiz darkor.
2. Qo'ni-qo'shni bilan doimo yaxshi munosabatda bo'lishimiz kerak.
3. Bahor kelishi bilan qo'ziqorinlar yer yuzida paydo bo'la boshlaydi.
4. Asalari tinim bilmay asal yig'ishdan charchamaydi.
5. Yurtimizning mustaqillik bayramida yosh-qari o'ynab kuldi.
6. Ko'klam kelishi bilan butun tabiat jonlana boshlaydi.
7. Daraxtlar xoh manzarali bo'lsin, xoh mevali ular tabiatga foydali hisoblanadi.

Dars yakunida guruhdagi barcha o'quchilar baholanadi va ma'naviy rag'batlantiriladi. Uyga vazifa sifatida darslikdagi 4-topshiriqni bajarib kelish topshiriladi. Unga qo'shimcha ravishda o'quvchilarga quyidagi topshiriqni ham berish mumkin. Quyidagi matndan otlarning lug'aviy va munosabat shakllarini toping.

Opasi savatda olma, behi, anor, nashvati olib kirib, dasturxon tuzishga tushdi. Ukasining so'rog'ini kutmay, oiladagi yangiliklardan boshladi.

Hashtak-pashtakni eshitib, o'rinboyning esiga onasi tushdi. Bog'larida bir tup subhoni o'rik bo'lardi. Shu o'riklar burunning qoniday bo'lib qizarib pishganida onasi go'shtini danagidan bitta-bitta ajratardi-da, keyin danagini chaqib, yana go'shti orasiga tiqib juftlagach, oftobga yoyib quritardi. Qishda og'zingizga solsangiz, xuddi mag'izli holva yeganning savobini topardingiz.

U shularni xotirlab turganida opasi nega temulasan ol dasturxonga qara deganida uning hayoli o'ziga keldi. Shundan so'ng jiyanlari, pochchasi haqida so'ray ketdi. Jiyanlari tez orada maktabdan qaytishini eshitib xursand bo'ldi. Zum o'tmay jiyanlari hovlini to'ldirib kirib kelishdi. O'rinboy jiyanlari bilan qancha o'ynamasin ularning diydoriga hech to'ymasdi.

3.2. Olib borilgan takrorlash darslarining natijalari

Darslik asosida an'anaviy tarzda o'tilgan darslar bilan bitiruv malakaviy ishda keltirilgan innovatsion texnologiyalar va qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar tizimidan foydalanilgan noan'anaviy dars shakli orasidagi farq o'quvchilar orasida olib borilgan so'rovnoma savollariga berilgan javoblarning natijalaridan ko'rinib turibdi.

So'rovnomadan quyidagi savollar o'rin olgan.

1. Takrorlash darslarining qanday tashkil etilishini xohlaysiz?
 - A. Noan'anaviy shaklda
 - B. Suhbat asosida
 - C. Darslarning bir hil tarzda olib borilgani maqul
2. Takrorlash darslarida o'quvchilarning guruh bo'lib ishlashlari sizga ma'qulmi?
 - A. Ma'qul
 - B. Ma'qul emas
 - C. Yakka tartibda ishlashni yaxshi ko'raman
3. Hamkorlikda ya'ni kichik guruhlarga bo'linib ishlash texnologiyasi qaysi jihatlari bilan sizga yoqadi.
 - A. Fikrlashib fikr bildirish imkoniyati cheksiz va hamma teng harakat qiladi.
 - B. Jamoaning g'olib bo'lishi uchun kurash olib boriladi.
 - C. A va B javob to'g'ri
4. "Klaster", "Venn diagrammasi" kabi metodlar bilan tanishmisiz?
 - A. Ha
 - B. Yo'q
 - C. Eng ko'p qo'llanadigan metod hisoblanadi.
5. "Skrabey", "Yelpig'ich" texnologiyalari bilan tanishmisiz?
 - A. Yo'q
 - B. Deyarli tanishman
 - C. Ha
6. Kichik guruhlarda shartlarni bajarish uchun vaqt yetarli bo'ladimi?
 - A. Yo'q

Savollarning tartib raqami	A javobni belgilaganlar	B javobni belgilaganlar	C javobni belgilaganlar
1-savol	15	5	5
2-savol	18	5	2
3-savol	4	4	17
4-savol	8	2	15
5-savol	7	9	9
6-savol	7	7	11

B. Shartlar murakkabligiga qarab

C. Vaqt to'g'ri taqsimlanmaydi

Takrorlash darslarining noan'anaviy tarzda tashkil etilgan guruhdagi baholangan o'quvchilar soni an'anaviy o'quvchilar tarzda tashkil etilgan guruh o'quvchilari soniga qaraganda ko'proqni tashkil etadi. Shularga tayangan holda takrorlash darslarini va takrorlashga doir mashg'ulotlarni nisbatan innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish maqsadga muvofiq deyish mumkin.

Ochiq dars ishlanmasi

Fan: ona-tili.

Sinf: 6-sinf.

Mavzu: Ot soʻz turkumi yuzasida takrorlash darsi.

Darsning maqsadi:

1. Taʼlimiy maqsadi

- a) Ot soʻz turkumi haqidagi olgan bilimlarini mustahkamlab, koʻnikma malaka xosil qilish.
- b) Oʻquvchilarning bilish darajasini bir-biri bilan taqqoslash.
- d) Ona-tilini hurmat qilgan holda chet tilini oʻrganishga boʻlgan qiziqishni oshirish.

2. Tarbiyaviy maqsad:

- a) Ajdodlar merosiga sodiq boʻlib, vatanimizga munosib farzand boʻlish.
- b) Odob-axloq qoidalariga rioya etish, oʻzgalar fikrini aniqlash, hurmat qilishga oʻrgatish
- d) Oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad.

Bilim koʻnikma malakasini rivojlantirish, tez fikrlay olish, hozirjavobligini oshirish.

Darsing turi: Yangi bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars usuli: Aqliy hujum, klaster, beshinchisi ortiqcha metodi, nima qiladi? metodi, baxtli tasodif metodi.

Darsning jihozi: Darslik, kompyuter, monitor, tarqatma kartochkalar,

Dars shiori: *Oʻrgan –oʻrgat, hech qachon bilim olishdan charchama.*

Darsning borishi:

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Darsning borish bosqichlari	Darsda foydalaniladigan metodlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	<i>Aqliy hujum metodi</i>	5daqiqqa
2	O'tilgan mavzuni so'rash,uy vazifasini tekshirish.	<i>Baxtli tasodif metodi. Test usuli.</i>	10daqiqqa
3	Yangi mavzu bayoni.	<i>Klaster metodi,</i>	15 daqiqqa
4	Yangi mavzu mustahkamlash	<i>Nima qiladi? o'yini beshinchisi ortiqcha metodi.</i>	10 daqiqqa
5	Uy vazifa berish.	<i>Topshiriq berish, tushuntirish.</i>	3 daqiqqa
6	Baholash va rag'batlantirish.	<i>Ball qo'yish, Taqdirlash.</i>	2 daqiqqa

O'quvchilar darsga hozirligi tekshiriladi. **“Tartib posboni va orasta qiz”** hisobot beradi. **Bahor fasli** haqida ma'lumot beriladi

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.



“Aqliy hujum” savollari

1. Otlarning erkalash shakllari deb nimaga aytiladi?
2. Kichraytirish shakllari qanday qo‘shimchalar yordamida yasaladi?
3. *-choq, -cha, -jon* qo‘shimchalari yordamida erkalash va kichraytirish shakllarini yasang.
4. Otlarning birlik shakli deb nimaga aytiladi?
5. Otlarning ko‘plik shakli qanday yasaladi?
6. *-lar* qo‘shimchasi qanday ma’nomlarni ifodalash uñhun xizmat qiladi?
7. Aniq otlar deb nimaga aytiladi?
8. Mavhum otlarga misollar keltiring.
9. Mavhum otlar nima sababdan ko‘plik shaklida qo‘llanmaydi?
10. O‘rin-joy otlari deb qanday otlarga aytiladi?
11. Ularni qanday ma’no turlariga ajratish mumkin?
12. Qaysi qo‘shimchalar yordamida o‘rin-joy otlari hosil qilinadi

2. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash va uy vazifani tekshirish.



1-topshiriq. Uch guruhga bo‘lining. Birinchi guruh sodda, ikkinchi guruh qo‘shma, uchinchi guruh juft otlarga misollar yozsin. So‘ng ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna

1-guruh	2-guruh	3-guruh
bog‘	gulbog‘	bog‘-bo‘ston
adir	otashkurak	qir-adir
dala	qo‘qop	non-choy

2-topshiriq. *Temirjon, Po‘latjon, Oltinoy, Kumushxon, Jasurbek, Nodirbek, Go‘zaloy, To‘xtasinbek, Turdixon, Charosxon* kabi atoqli otlarning qaysi so‘z turkumlaridan yasalganini aniqlang. Ularning tarkibida kelgan erkalash shakllarini yasovchi qo‘shimchalarni izohlang.

Temir + jon

Po‘lat + jon

3-topshiriq. Quyida berilgan turdosh otlarni jadvalga joylashtiring.

Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Jarlik, bog‘bon, soylik, buloq, saylov, soat, dorboz,
somsapaz, daryo, irmoq, darvozabon, uzumchilik, dehqonchilik,
tintuv, o‘qituvchilik, qir, tepalik, jilg‘a.




Narsa otlari	O‘rin-joy otlari	Shaxs otlari	Faoliyat-jarayon otlari
soat	jarlik	dorboz	Uzumchilik

Ushbu rasm asosida ijodiy matn tuzing. Tuzgan matningizdagi so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratib, yozing va so‘zlarni qaysi so‘z turkumiga mansub ekanligini izohlashga harakat qiling.



O'quvchilarni baholash va rag'batlantirish.

O'quvchilar quyidagicha baholanadi



UMUMIY XULOSALAR VA METODIK TAVSIYALAR

Ta'lim bosqichlarida o'tilganlarni takrorlashga oid amalgam oshirilganlarni ilmiy-tadqiqot ishlarining va fan dasturi va darsliklarining tahlili natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishi mkonini beradi:

1. Maktabda ona tilini va akademik litseylarda hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qish metodikasiga doir amalgam oshirilgan tadqiqot ishlarida, yaratilgan metodik amaliyotlarda takrorlashni, yangi mavzuni o'rganish jarayonida oldingi o'rganilganlarni xotiraga tushirish orqali takrorlashni tashkil etish muammosi maxsus yirik tadqiqot darajasida maxsus yoritilmagan, bunda, albatta, o'quv yili boshidagi takrorlash darslarini hisobga olmaganda. To'g'ri M.Omilxonovning "Maktabda ona tili o'qitish metodikasi" va "Maktabda sodda gap sintaksisini O'qitish", shuningdek, T.Yusupovning "Sintaksisni morfologiyani takrorlash bilan bog'lab o'rganish metodikasi" nomli monografiyalari yaratilgan, ammo ularda asosan, sintaksis va morfologiya bo'limlarigina tadqiqot obyekti qilib olingan.

2. Aksariyat manbalarda va ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni o'rganish natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, yangi mavzuni o'rganish jarayonida oldingi bo'limlarda o'rganilgan tushunchalarni xotiraga tushurish nazariy ma'lumot tarkibida shu tushunchalarga murojaat etilishiga bog'liq. Masalan, 8-sinf "Ona tili" darsligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, sintaktik tushunchalarni anglatish uchun morfologiyaga murojaat miqyosi keng emas, bu ishlar zaruriyatga qarab ro'yobga chiqarilgan: nazariy ma'lumot tarkibida, shuningdek, mashq va topshiriqlarda tilga olingan. Lekin nazariy ma'lumotdagi murojaatning maqsadi boshqa. Birinchisi asl murojaatni, ikkinchisi tahlil va takrorlash bilan bog'liq sun'iy murojaatni (o'tilganlarni takrorlash ehtiyojini) ifoda etadi. Ayrim tushunchalarga (mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'z turkumi, ot, fe'l, ko'makchi, bog'lovchi va boshqalar) ikki-uch marta murojaat etilgan. Ko'pchilik tushunchalar bir marta tilga olingan. 8-sinfidagi o'quv yilining choraklari bo'yicha

qilingan murojaatlar bir xil emas. Ayrim darslar (28-31-, 35-39-darslar) takrorlashda uzilishlar yuzaga keltirishi mumkin.

3. Takrorlash jarayonini amalgam oshirishda o'quvchilarning tayanch bilimlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

4. Umuman takrorlash masalalari ona tili o'qituvchilari duch keladigan katta qiyinchiliklar sirasini ifoda etadi. Ayniqsa, takrorlash shakllari, metod va usullari yangi pedagogic texnologiya, axborot texnologiyalari, innovatsiyalar nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi metodik zaruriyat sanaladi. Akademik litseylarda shu bosqichga qadar egallangan bilimlar, ko'nikma va malakalar, bir tomondan, o'quvchilarning filologik mushohada yuritishlari darajasidagi og'zaki va yozma nutqini o'stirish, ikkinchi tomondan, matn yaratishda amal qilish (nutqning Grammatik qurilishiga ta'sir etish) hisobiga amaliy ahamiyat kasb etishi kerakligi metodik adabiyotlarda maxsus ta'kidlangan.

5. Xullas, maktab va akademik litsey til ta'limi jarayoni bugungi kunda birinchi navbatda kommunikativ yondashuvga ko'ra nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim. Shuningdek, ushbu yondashuvning talabiga ko'ra maktab va akademik litseyning o'quvchilari ona tilini muomala-aralashuv taqozo etadigan, axborot olish ehtiyoji talab qiladigan darajada o'rganishi va egallashi zarur, qolaversa, shu tilning chinakam sohibiga aylanishlari darkor.

6. Filologik maqsad – til hodisalaridan – tilning boy imkoniyatlaridan mumkin qadar to'liqroq foydalanib nutq mahsulini yaratishdir. Ona tili darslarida filologik maqsad bilan nutq o'stirish maqsadini birlashtirish imkonini beruvchi jarayonni yuzaga keltirishda aynan takrorlash darslarining o'рни beqiyos. Demak, kommunikativlik tamoyili asosida yondashuv ona tilidan takrorlash darslarini tashkil qilishda, qolaversa, darsda samaradorlikka erishishda juda katta yordam beradi.

7. Ta'lim tamoyillari ta'lim tizimi oldiga qo'ygan talablardan kelib chiqadi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirib o'qitish tamoyillarini amalda to'g'ri qo'llash bilan bog'liq. Chunonchi, ona tili darslarida bir tomondan umum didaktik tamoyillar, ikkinchi tomondan shu fanni o'qitishning o'ziga xos tamoyillarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Umum didaktik tamoyillar garchand ta'lim muassasalarida O'qitiladigan hamma fanlar uchun umumiy bo'lgan didaktik tamoyillar: O'qitishning O'quvchiga ma'lumot berish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilganligi; o'qitishning ilmiyligi va o'quvchi uchun tushunarligi; sistemaviylik (yokitizimlilik) vaizchilik; nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqasi; onglilik, faollik va mustaqillik; ko'rsatmalilik; o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish va ularning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish kabi tamoyillar garchand umumdidaktik tamoyillar sanalsa-da, ammo onatili o'qitish nazariyasi va metodikasida ularning har biri o'ziga xos mazmun kasb etadi.

O'rganilayotgan mavzuni o'zlashtirish maqsadida darsning qaysi didaktik siklini tanlash, har bir mavzu doirasidagi mavjud axborotlar hajmi, ularni qayta ishlash, bunda qaysi mexanizmlarni ishga qanday usulda qo'llashdan xabardor bo'lish ta'lim sifatini oshirishni, ta'lim muassasasida iliq va samimiy munosabat o'rnatilishini ta'minlaydi. Pedagog o'z ishiga astoydil, hech bir jihatini, talablari va shartlarini o'zdan qochirmagan ham ortiq samara beradi. Bunday intiluvchanlik va g'ayrat, ayniqsa, ona tili ta'limida katta ahamiyat kasb etadi. Maktab ona tili va akademik litseylarning hozirgi hozirgi o'zbek adabiy tilidan takrorlash darslarini quyidagi innovatsion texnologiyalardan hamda mashq va topshiriqlar tizimida unumli foydalangan holda tashkil etish mumkin: 1. "Seminar-musobaqa", "Aqliy hujum"; "O'yin"; "Lift"; kabiteknologiyalar: 2. "Xotiplash, qisman-izlanuvchanlik va ijodiy xarakterdagi maqsad va topshiriqlar".

Tajriba-sinov natijalari bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan farazlarning to'g'ri ekanligini isbotlab berdi.

Tayanch soʻzlarning oʻzbekcha-inglizcha lugʻati

Adabiy til – literary language

Ahamiyatli–important, considerable

Aloqa – connection, relation

Amaliy – practical, applied

Amaliy ish – practical work

Amaliyot – 1) activities; 2) occupation.

Anʻanaviy – traditional

Anʻanaviylik – traditional nature

Aqliy faoliyat – mental activities

Asosiy – main, chief, principal, fundamental

Axborot – report, information

Dars – lesson, class, occupation

Dars bermoq – teach, give lessons

Darslik – textbook, manual, primer

Darsxona (sinf, auditoriya) – lecture-hall, lecture-room, classroom

Dastur – reversing rod

Didaktik – didactic

Didaktika – didactics

Dolzarb – peak, culmination

Erkin – free

Eslatmoq – mention

Eslamoq – listener

Fan – science, subject

Izohli lugʻat – dictionary

Faol – active

Faoliyat – activity

Faollik – activity

Fikr – idea, thought, opinion

Filologiya – philology

Foydalanish – use, using, useful
Ijobiy – positive, favourable
Ijodkorlik – creation
Ilmiy – scientific
Iqtidorli – powerful, mighty
Izoh bermoq – explain
Izchil – successive, consecutive
Jalb etmoq – attract smb's attention
Joriy etmoq – put into practice, introduce
Jurnal – journal, periodical
Kelajak avlod – future the next generation
Kitob – book
Kompyuter – computer
Ko'rgazma – exhibition
Ko'rsatmali – graphic, obvious
Malakali – experienced, skilled
Maqsadga muvofiq – expedient
Mavzu – subject, theme
Mashg'ulot – occupation, studies
Metod – method, methodology
Metodik – systematic, methodologic
Metodika – method, methodology
Metodist – methodologist
Muallim (o'qituvchi) – teacher
Mustaqil – self-dependet
Og'zaki – oral, verbal
Pedagog – teacher, educator
Pedagogik – pedagogical, educational
Qiziqarli – interesting, interestingly
Rivojlantirish – fostering, developing

Samarali – fruitful, productive, effective
Sezgi – feeling, sense
Ilmiy tadqiqot – research
Tahlil qilmoq – analyze
Taqdim qilmoq – present smb.(with), offer
Tarbiya – education, upbringing, care
Tarbiyalamoq – bring up, educate
Tatbiqetmoq – apply, employ, use
Ta’lim – education, teaching
Texnologiya – technology
Til – tongue, language
Umumta’lim – public education
Usul – method, way
Uzluksiz – uninterrupted, continuous
Uzviy – organic
Vosita – instrument, means, ways, methods
Xulosa – conclusion, summary
Xususiyat – peculiarity, uniqueness
Zamonaviy – contemporary, modern, current
Zarur–necessary, urgency
O‘qimoq – study
O‘qitish – teaching
O‘qitmoq – teach
O‘quvchi – pupil
O‘rganmoq – learn, study, master
O‘rgatish – instructing, teaching
O‘yin – play, game
O‘zlashtirmoq – master, acquire, assimilate (a subject, profession)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008
2. Karimov. I. A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2015. – B: 302.
3. Каримов. И. А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б: 248.
4. Каримов. И. А. Узбекистон мустакиликка еришиш остонасида. – Тошкент.: “Узбекистон”, 2011. – Б: 440.
5. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаравон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаравон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
7. Узбекистон републикасининг “Талим тўғрисида”ги Конуни // Баркамол авлод – Узбекистон тараккийотининг пойдевори. – Тошкент.: “Шарк”, 1997, - Б: 20-29.
8. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараккийотининг пойдевори. – Тошкент.: “Шарк”, 1997, - Б: 31-61.
9. Abduraimova M. va b. Ona tili 8-sinf O'qituvchi metodik qo'llanmasi / Abduraimova, M. Qodirov, G. Abdumatova. – Toshkent.: “Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2006. – 144 b.
10. Абдураимова М. Сонни синтаксис асосида ўрганиш // ўзбек мактабларида она тили ва адабиёт дарслари самарадорлигини ошириш: Илмий асарлар тўплами. – Тошкент.: “Шарк” 1990. – Б. 21-27.
11. Акрамов Ш, Акрамова Л. Сатхлараро боғланишли тест технологиясидан фойдаланиш // Тил ва адабиёт таълими. 2002, 1-сон-Б.7-9.
12. Аминова С. Она тили дарсларида ноанъанавий усуллар: Тил ва адабиёт таълими, - Тошкент, 1995. - № 1, - Б. 17-18.
13. Бетошев Ш. Она тили дарсларида ўйин усулидан фойдаланиш // тил ва адабиёт таълими, - Тошкент, 1993. - № 5-6. – Б. 15-16.

14. Бокиева Х. Дарсларда ҳамкорлик // Бошланғич таълим. – Тошкент, 1996 – Б 146.
15. Давлат таълим стандартига шарх: Она тили // Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – таълим тараккиёти. Ахборотнома, 1-махсус сон. – Тошкент.: “Шарк”, 1999. – Б. 46-54.
16. Зиёдова Т. У. Она таълими жаранида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш. Пед. Фан. Номз ёзилган дисс. – Тошкент, 1995. 141 б.
17. Ёўлдошев Р, Абдуллаев Е. “Она тили” давлат таълим стандартини амалиётга жорий этиш юзасидан методик тавсиялар. – Тошкент, 2002. 41 б.
18. Yusupova T. Sintaksisni morfologiyani takrorlash bilan bog‘lab o‘rganish metodikasi (5- va 8-sinf ona tili darslari misolida). Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2009
19. Yusupova T., G. Matmurotova, G. Azimova. Ona tili darslarida kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish metodikasi/o‘quv-metodik qo‘llanma// - T.:TDPU. 2016.
20. G‘ulomov A., Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995
21. G‘ulomov A., Ne‘matov H. Ona tili ta’limining mazmuni. – T.: O‘qituvchi, 1995
22. Zunnunov A, Hotamov N, Esonov J, Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “O‘qituvchi” 2001
23. Zunnunov A. 4-10-sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish. –T.: “O‘qituvchi”, 2000
24. To`xliiev B. Yangi pedagogik texnologiyalar va adabiy ta’lim. “Filologik ta’limda innovatsion texnologiyalar” nomli ilmiy maqolalar to`plami. Toshkent, 2004.

Eletron ta'lim resurslari

Elektron saytlar ro'yxati:

- <http://www.Ziyo.net>;
- <http://www.ziyouz.uz>;
- <http://www.uzedu.uz>;
- <http://www.kitob.uz>;
- <http://www.fikr.uz>;